

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“KASBIY TA'LIM” KAFEDRASI

Xaydarov Abbas Iskandarovich

**“Tovar-moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o'tish metodlari va
ularni qo'llashni takomillashtirish**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Kasbiy ta'lim» kafedrası mudiri

_____ i.f.d., prof. A.Omonov

«__»_____2013 y.

**Bitiruvchi: 5140900 -“Kasb ta'lim”(Buxgalteriya hisobi va
Audit) ta'lim yo'nalishi 4- kurs talabasi Xaydarov Abbas Iskandarovich**

«__»_____2013 y

Ilmiy rahbar: _____ i.f.d., prof. A.Omonov

«__»_____2013 y.

Ilmiy maslahatchi : _____ i.f.n., prof.D.Tojiboyeva

«__»_____2013 y.

TOSHKENT - 2013

Men, Xaydarov Abbas Iskandarovich MKT-50 akadem guruh talabasi ushbu BMI ni mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Sana: _____ 2013 yil

Xaydarov Abbas Iskandarovich

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusining ilmiy nazariy masalalari va unga qo’yiladigan talablar	
1.1.Tovar moddiy zahiralar hisobini buxgalteriya hisobida tutgan o’rni, maqsad va vazifalari.....	6
1.2.Tovar moddiy zahiralar hisobi mavzusining o’ziga xos xususiyatlari va ular harakatini hujjatlarda aks ettirishni o’rganish zaruriyati va tutgan o’rni.....	12
II bob. “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusi bo’yicha dars o’tishda samarali metodlarni qo’llash amaliyoti	
2.1.Dars jarayonini tashkil etish va mavzuni o’rganish uchun metodlarni tanlashning roli, ahamiyati va me’zonlari.....	31
2.2. Mavzuni o’rganishda uning xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish.....	45
III bob “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o’tishda mavzuning xususiyatlariga mos metodlarni qo’llashni takomillashtirish	
3.1. Tovar moddiy zahiralar hisobi mavzusida dars o’tishda qo’llaniladigan topshiriqlar ishlab chiqish va qo’llashni takomillashtirish.....	53
3.2. O’quvchi, talabalar bilimini sinash va baholash mavzuni puxta o’zlashtirish omili sifatida	57
Xulosa	64
Foydalanilgan adabiyotlar	66
Ilovalar	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Jahon iqtisodiyotining tobora integratsiyalashuvi sharoitida pul mablag'lari likvidliligi jihatdan ayriboshlash vositasi sifatida mustaxkam o'rin egallab kelmoqda. Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozining kelib chiqishi sabablari bevosita pul mablag'lari oqimini nazorat qilish, ular bo'yicha axborotlarni shakllantirish va taqdim etishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarga bevosita bog'lik desak mubolag'a bo'lmaydi. Muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "... so'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar asosan qo'shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to'ldirish hisobidan hal etilishi ko'zga tashlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida jilovlab bo'lmaydigan inflyatsiyaga, ya'ni qimmatchilikka, zaxira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog'liq og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.”¹ Inqiroz oqibatlarini bartaraf qilish uchun avvalo pul mablag'lari oqimini nazorat qilish, ularni to'g'ri taqsimlash va ulardan maqsadli foydalanish lozim. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirini kamaytirishga erishilmoqda.

Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf qilishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida pul mablag'lari hisobini tashkil etish va yuritishni takomillashtirish, ularning iqtisodiy qudratini belgilash va to'lov qobiliyatini baholash muxim hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga zarur bo'lgan buxgalter mutaxassislarni bozor talablari darajasida tayyorlash, ularga sohaning xususiyatlarini puxta o'qitish kabi vazifalarni bajarishni taqazo etadi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarni amaliyotga tadbiq qilish borasida buxgalteriya hisobi sohasida yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tayanch ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

muassasalarida buxgalteriya hisobi fanini talabalarga o'qitish orqali iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liq barcha muammolarning echimi va ushbu sohaning rivojlanishidagi muhim qadamlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim soxasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamon talablaridan bo'lib, talabalarni faollashtirish, mustaqil fikrlashga undash, nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilish orqali mustaqil fikrga ega zamonaviy, bilimli yetuk kadr bo'lib etishtirishda muxim vosita bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarda fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga, talabalarni faollashtirishga, mustaqil fikrlashga undaydi. “Tovar moddiy zahiralari hisobi” mavzusida dars o'tish metodlari va ularni qo'llashni takomillashtirish muximligini talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti va ob'ekti. Bitiruv malakaviy ishini predmeti etib buxgalteriya hisobi bo'yicha talabalarga bilim berish jarayonlar tizimi olingan. Tadqiqot ob'ekti qilib Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. “Tovar moddiy zahiralari hisobi” mavzusida dars o'tish metodlari va ularni qo'llashni takomillashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- talabalarga “Buxgalteriya hisobi” fanini davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda o'qitishni nazariy jihatdan asoslash;
- “Tovar moddiy zahiralari hisobi” mavzusida dars o'tish metodlari va ularni qo'llashni takomillashtirishni inobatga olgan holda talabalarga bilim berishning afzalligini asoslash;
- Fanni o'qitishda pedagogik me'yoriy talablarga asosan dars o'tishning muximligini yoritish;
- “Tovar moddiy zahiralari hisobi” mavzusida dars o'tish metodlari va ularni qo'llashni takomillashtirishning o'ziga xos ijobiy tomonlarini asoslash.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy amaliy ahamiyati:

1. “Tovar moddiy zahiralari hisobi” mavzusida dars oʻtish metodlari va ularni qoʻllashni takomillashtirish mavzusini nazariy va amaliy huquqiy asoslarini hozirgi mavjud oʻquv va ilmiy adabiyotlari meyoriy hujjatlarni oʻrganish asosida mazkur mavzu nihoyatda kam oʻrganilganligi iqtisodiy yoʻnalishdagi kasb-hunar kollejlari “Tovar moddiy zahiralari hisobi” mavzusining oʻziga xos xususiyatlari aniqlandi.
2. Taʼlim jarayonida mavzuni oʻrganishda samarali metodlarni oʻquv jarayonini tashkil etishdagi oʻrni, roli, mavzu boʻyicha dars oʻtishda ularni tanlash mezonlari koʻrsatildi.
3. Mavzu boʻyicha dars oʻtishda qoʻllaniladigan pedagogik texnologiyalar mazmuni ularni mavzuga moslashtirish masalalari oʻrganildi. Ulardan foydalanishni takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan kasb-hunar kollejlari mazkur mavzuni oʻrganishda foydalanish mumkin.

Qoʻyilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishini tarkibiy tuzilishini quyidagicha belgilandi.

Ish, Kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalangan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

Birinchi bobda “Tovar moddiy zahiralari hisobi” mavzusini ilmiy-nazariy asoslari oʻrganilgan.

Ikkinchi bobda mavzuni mustaqil oʻrganish bilan samarali metodlardan foydalanish. Texnologiyalar va mavzuni oʻrganishda ulardan foydalanishni tadqiq etishga, uchinchi bobda esa mavzuni mustaqil oʻrganish uchun topshiriqlar ishlab chiqarish va qoʻllash metodikasini va uni takomillashtirish keltirilgan.

I bob. “TOVAR MODDIY ZAHIRALAR HISOBI” MAVZUSINING ILMIY NAZARIY MASALALARI VA UNGA QO’YILADIGAN TALABLAR

1.1 Tovar moddiy zahiralari hisobini buxgalteriya hisobida tutgan o’rni, maqsad va vazifalari.

Ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Amalda ular TMZlar deb ataladi. Asosiy vositalardan farq qilib, TMZlar bir ishlab chiqarish jarayonida o’zining qiymatini to’la ravishda mahsulot tannariga o’tkazadi. Materiallarning har bir turi bo’yicha normativ miqdori korxonadan tomonidan mustaqil belgilanadi. Xo’jalik yuritishning yangi tizimi sharoitida moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, Xo’jasizlikka qarshi kurash mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e’tibor beriladi. Materiallari hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Materiallari harakati bilan bog’lik bo’lgan o’zgarishlarini o’z vaqtida tegishli hujjatlarda rasmiylashtirish.
2. Materiallarni joylashda ularni to’g’ri saqlanish ustidan nazorat olib borish.
3. Moddiy texnika ta’minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib boriladi.
4. Materiallarning ishlab chiqarishga to’g’ri berilishi va ularni sarflash me’yoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish.
5. Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyatsiya ob’ektlarida to’g’ri taqsimlash.
6. Ichki resurslarni ishga solish maqsadida ortiqcha va foydalanilmayotgan TMZlarni aniqlash va sotish.

Materiallari, yangi mehnat mahsulotini yaratishdagi roliga qarab ikkiga bo’linadi.

- a) xom ashyo va asosiy TMZlar.
- b) yordamchi TMZlar.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini asosiy TMZlar tashkil qiladi. Masalan, mashinasozlikda – metall, mebel ishlab chiqarishda yog’och, gazlama ishlab chiqarishda –paxta va boshqalar. Qazib chiqaruvchi sanoat va qishloq xo’jaligi mahsulotlari xom ashyo deb ataladi. Masalan, neft, ruda, paxta, qand lavlagi va boshqalar. Boshqa korxonalardan olinadigan mashina va agregatlarning to’g’ri detallari va boshqalar yarim tayyor mahsulotlar deb ataladi.

Tovar moddiy zahiralari O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 27 avgust 44-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS-4) ga binoan olib boriladi.

Xo’jalik yurituvchi sub’ktlarda TMZlarni hisobga olish uchun 1000-«Materiallar» aktiv schyotidan foydalaniladi. Bu schyot o’z navbatida bir necha schyotlarga bo’linadi.

- 1010 - Xom ashyo va TMZlar;
- 1020 - Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar;
- 1030 - yoqilg’i;
- 1040 - Ehtiyot qismlar.
- 1050 - Qurilish TMZlari.
- 1060 - Idish va idishbop TMZlar.
- 1070 - Qayta ishlashga berilgan TMZlar.
- 1080 - Inventar va xo’jalik jihozlari.
- 1090 - Boshqa TMZlar.

Buxgalteriya hisobining milliy standarti «**Tovar-moddiy zahiralari**» (4-son) standartiga ko’ra ularni baholash belgilangan tannarxdan yoki sotishning sof qiymatidan eng kam baho bo’yicha baholanadi. Materiallarni tannarxi barcha sotib olish xarajatlarini va ularni manzilga etkazib berish bilan bog’liq bo’lgan transport tayyorlov xarajatlarini o’z ichiga oladi.

Materiallarni sotib olish xarajatlari sotib olish qiymatini, import bojlari va yig’imlarini, tovarni sertifikatlash qilish xarajatlarini, ta’minot, vositachi tashkilotlarga to’langan komission to’lovlarni, Soliqlarni, xizmat va zahiralarni

sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari savdo foizlari yoki chegirmalari va shunga o'xshash boshqa chegirmalar TMZlarni sotib olish xarajatlarini belgilashda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish zahiralarining xaqiqiy tannarxini aniqlash, ularni baholashning quyidagi usullarini qo'llash bilan amalga oshirishladi.

1. Donalab baholash.
2. FIFO.
3. O'rtacha qiymat usuli.
4. LIFO.

Donalab baholash usuli avtomobil, tasviriy san'atning noyob durdonalari, qimmatbaho zargarlik buyumlari kabilarni hisobga olishda yuritiladi va har bir buyum alohida donalab baholanadi. O'rtacha qiymat usuli yordamida sotishga yaroqli TMZlar o'rtacha qiymati hisoblab topiladi. Vaqti-vaqti bilan ro'yxatga olishni o'tkazilayotganda o'rtacha miqdor butun bir davr uchun hisoblab chiqiladi. Birincha partiya baholari, ishlar chiqarishga ham birinchi chiqarish (birinchi zahiraga qabul qilgan birinchisi ishlab chiqarishga), FIFO usuli eng eski bo'lgan TMZlarni birinchi navbatda sotilishi, keyinroq qabul qilingan xaridlar davr oxiriga zahira bo'lib qolishini nazarda tutadi. FIFO usuliga qarama-qarshi bo'lgan oxirgi qabul qilingan partiya bahosi ishlab chiqarishga birinchi chiqarish usul- (oxirgisi zahiraga birinchisi ishlab chiqarishga) degan (LIFO) usulidir. Bunda sotilgan TMZlarning qiymati eng keyingi xaridlarga asoslangan bo'lib, davr oxiriga qolgan TMZ zahirasi eng avvalgi mavjud bo'lgan buyumlar qiymati bo'yicha baholanadi.

Donalab baholashda, kamroq qiymati tanlangan bo'lsa, 18900 so'mni $(120 \times 90) + (70 \times 100) + (10 \times 110)$, agar tannarxi eng yuqori bo'lgan 150 ta buyum tanlangan bo'lsa, LIFO usulida 20500 so'mni $(90 \times 110) + (70 \times 100) + (40 \times 90)$ tashkil etadi. O'rtacha qiymatda esa 19784 so'm $(200 \times 98,92)$ bo'ladi, ya'ni $27700 : 280 = 98,92$. FIFO usulida, 18900 so'm $(120 \times 90) + (70 \times 100) + (10 \times 100)$ bo'lsa, LIFO usulida 20500 so'm $(90 \times 110) + (70 \times 100) + (40 \times 90)$ ni tashkil etadi.

Misol: Ko'rsatkichlar, buyumlar miqdori, birligining bahosi, umum bahosi:

1. Materiallar zaxirasi 1 yanvar 120 90 10800
2. 1 iyunda sotib olingan 70 100 7000
3. 1 oktyabrda sotib olingan 90 110 9900
4. Sotilgan TMZlar 280 98,92 27700
5. Yil davomida sotilgan TMZlar 200 ? ?
6. Davr oxirida qolgan TMZ zahirasi 80 ? ?

Bu usullarni solishtiradigan bo'lsak, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi. (Bu erda donalab baholash usuli aniq tanlab olingan buyumlarga bog'liq bo'ladi).

Ko'rsatkichlar, Sotilgan materiallar qiymati so'm, Davr oxirida qolgan mater. Jami so'm:

FIFO 18900 8800 27700

O'rtacha tannarx 19785,5 7915,5 27700

LIFO 20500 7200 27700

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda (**BXMS №4-son**) muvofiq FIFO usulini qo'llash maqsadga mos keladi, chunki ishlab chiqarish zaxiralari qiymati hisobot davri oxirida joriy bahoga yaqinroq bo'ladi va korxonada aylanma aktivlarini aniq aks ettiradi.

TMZ larni sof sotish qiymati bo'yicha baholash.

TMZ yaroqsiz bo'lganda, brak, qisman yoki butunlay eskirganda, sotuvni tashkil qilish xarajatlari oshganda, raqobat kuchayib sotuv narxi pasaygan holatlarda, tovar-moddiy zaxiralari o'z tannarxidan ishlab chiqarish qiymatidan past bahoda sotish qiymatida baholanishi mumkin.

Sof sotish qiymati – tovar sotilishining taxminiy qiymatidan tovarlarni sotuv oldidan tayyorlash va uni sotish xarajatlarning ayirmasidir.

Tovar-moddiy zahiralarini sof sotish qiymatigacha quyidagi usullar asosida qisman hisobdan chiqariladi:

1. moddalar bo'yicha usuli – bunda tovar-moddiy zahiralarining har bir turi baholanadi;

2. asosiy tovar guruhlarining usuli – bunda tovar-moddiy zahiralarning guruh imtiyozi baholanadi;

3. zaxiralarning umumiy darajasi usuli – bunda hamma tovar-moddiy zahiralari baholanadi.

Masala: TMZni sotish qiymati bo'yicha baholash.

«MEKIL» korxonasi o'zining tijorat faoliyatini hisobot davrida uning egalari

tomonidan kiritilgan 6000000 so'm kapitali bilan faoliyat boshladi. Kompaniya 2000 birlik tovar-moddiy zahiralarni 2000000 so'mga sotib oldi, fraxt xarajatlari 200000 so'mni tashkil etdi. Yil davomida korxonada 1650 birlik mahsulotning bir birligini 1500 so'm bahoda sotdi.

Yil oxirida xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida 350 birlik mahsulot bor, ulardan 50 tasi yaroqsiz holga kelgan edi. Yaroqsiz holga kelgan birliklarning har birini 450 so'm bahoda, qolgan 200 donaning esa har birini 1500 so'm narxda sotishi mumkin bo'ladi. 1. Iyul oxiriga bo'lgan TMZ qoldiqlari balansda qanday summa bo'yicha hisobga olinadi ? 2. Ushbu muomalalar bo'yicha yaroqsiz holga kelgan birliklarning sotilishining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga ta'sirini aniqlang.

Birinchi savolning javobi:

TMZ birligining tannarxi:

$2000000 \text{ so'm} + 200000 \text{ so'm} = 2200000 \text{ so'm} / 2000 = 1100 \text{ so'mni}$ tashkil qiladi.

Sof sotish qiymati:

- yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar uchun 450 so'm
- shikastlanmagan mahsulotlarning birligi uchun 1500 so'm

Balansda TMZ tannarxi va sof sotish qiymatidan eng kichik qiymat bo'yicha aks ettiriladi:

Yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar $50 \times 450 = 22500 \text{ so'm}$

Shikastlanmagan mahsulotlar $300 \times 1100 = 330000 \text{ so'm}$

Jami TMZ qoldiqlari 352500 so'm

Ikkinchi savolning javobi:

Sotishdan olingan sof tushum $(1650 \times 1500 \text{ so'm}) = 2475000 \text{ so'm}$

Sotilgan mahsulotlarning tannarxi $(1650 \times 1100 \text{ so'm}) = 1815000 \text{ so'm}$

Sof sotish qiymati $(50 \times 350 \text{ so'm}) = 17500 \text{ so'm}$

Tannarx $(50 \times 1100 \text{ so'm}) = 55000 \text{ so'm}$

Yaroqsiz holga kelgan mahsulotlardan ko'rilgan zarar (37500 so'm)

Sotuvdan kelgan yalpi foyda $(1125000 - 825000 - 42500 = 25700 \text{ so'm})$.

TMZni hisobga olishning davriy usuli.

Joriy hisobga olish tizimini qo'llashda yil davomida TMZning har birining batafsil hisobi yuritilmaydi. Tovar-moddiy zahiralarning haqiqiy mavjudligi inventarizatsiyasi natijalari bo'yicha aniqlanadi. Sotilgan TMZning tannarxini inventarizatsiya yakunlanmaguncha aniqlab bo'lmaydi, chunki sotilgan TMZ tannarxini hisoblash quyidagi formula bilan topiladi:

$$ZK + ZR = ZT + ZK1 = ZR, \text{ b u n d a}$$

ZK - hisobot davri boshiga bo'lgan TMZ qoldig'i;

ZR - kelib tushgan TMZ;

ZT – sotishga tayyor TMZ tannarxi;

ZK1 - hisobot davri oxiriga bo'lgan TMZ tannarxi;

ZR – sotilgan TMZ tannarxi.

Joriy hisobga olish tizimini qo'llaganda, tovar-moddiy zaxiralarning balans schyotlaridagi qoldig'i inventarizatsiya yakunlanmaguncha boshlang'ich darajada qoladi. TMZning butun harakati xarajatlarning vaqtinchalik schyotlarida aks ettiriladi, masalan, metallarning xaridi «Tovar-moddiy zaxiralar» balans schyotida emas, balki 1510 –«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotining debetida aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida TMZ qoldiqlarining inventarizatsiyasi natijalari bo'yicha TMZni hisobga olish balans schyotlarining debetlanishi yoki kreditlanishi, «Tovar-moddiy zahiralar bo'yicha tuzatishlar» yoki «Materiallarni xarid qilish bo'yicha xarajatlar» schyotlari bilan o'zaro aloqoda tuzatuvchi yozuvlar amalga oshiriladi. Butun hisobot davri davomida sotilgan TMZning tannarxi «Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha

tuzatishlar» schyotining qoldig'iga tuzatilgan, «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotining debeti bo'yicha yig'ilib boriladi. TMZni doimiy hisobga olish tizimini qo'llaganda TMZning balans schyotlarida tovarmoddiy zahiralarning qabul qilinishi va chiqib ketishi batafsil aks ettiriladi. TMZni joriy hisobga olishda qo'llaniladigan xarajatlarning vaqtinchalik schyotlarida bu holda qo'llanilmaydi. Natijada butun hisobot davrida TMZning ma'lum turlarining mavjudligi va sotilgan zahiralarning tannarxi ma'lum bo'ladi.

Sotilgan TMZning tannarxi sotilish bo'yicha «Sotilgan mahsulot (tovar)ning tannarxi» schyotida aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobida uzluksiz va davriy tizimlarning asosiy farqi shuki, uzluksiz hisob tizimiga muvofiq «Tovarlar» schyotida doimo yangi xaridlar, sotuvlar va tovarlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa muomalalar aks ettiriladi. Zaxiralarning davriy hisob tizimi yuritilganda ushbu schyot tamoyil bo'yicha ma'lumotlar hisobot davrining oxirida mavjud

Tovar-moddiy zaxiralarning inventarizatsiyasi o'tkazilmaguncha, boshlang'ich holida qoladi. Natijada davriy hisob tizimi sharoitida ishlatiladigan «Tovarlarning xaridi», «Sotib olingan tovarlarning qaytarib berilishi va narxining pasaytirilishi», «Xaridorlardan chegirmalar» va «Tovarlarni sotib olish bo'yicha transport xarajatlari» kabi schyotlar zaxiralarni uzluksiz hisobga olish tizimi sharoitida ishlatilmaydi.

1.2. Tovar moddiy zahiralarning hisobi mavzusining o'ziga xos xususiyatlari va ular harakatini hujjatlarda aks ettirishni o'rganish zaruriyati va tutgan o'rni

Tovar moddiy zaxiralarning xususiyatlari quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- materiallarning mahsulot tarkibidagi ulushiga qarab;
- materiallar ishlab chiqarish jarayonida o'rniga qarab;
- ishlab chiqarishning uzluksiz vositasi sifatida taminlash;
- 4-sonli BHMS ga binoan, ombordagi va ombordan chiqib ketayotgan.

Tovar-moddiy qiymatliklarni baholash va hisobga olishda: Donalab baholash, FIFO, LIFO usullaridan foydalanish;

- materiallarning ombordagi hisobiga qarab;
- hujjatlarning rasmiylashtirilishi bo'yicha;
- mahsulot tan narxida aks etishiga qarab;
- materiallarning inventarizatsiyasi bo'yicha;
- hujjatlarda aks etishiga qarab;

Tovar moddiy zaxiralar korxonada buxgalteriya balansiga sotib olingan va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar barcha xarajatlarni o'z ichiga olgan tannarx bo'yicha olinishi kerak.

Tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- A) Bojxona bojlari va yeg'implari;
- B) Tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan soliqlar va yeg'implar summasi
- C) Vositachilarga to'lanadigan vosita haqi;
- D) Tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan sertifikatlash xarajatlari;
- E) Transport xarajatlari;
- F) Tovar moddiy zaxiralarni sug'urta qilish xarajatlari;
- G) Tovar moddiy zaxiralarni yuklash xarajatlari;
- H) Tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlari;

Materiallarni qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida joylashtirilishi va ombordan berilishi muomalalarini rasmiylashtirish uchun bir xillashirilgan idoralararo dastlabki hujjatlar ko'zda tutiladi.

"Keladigan yuklarni ro'yxatga olish jurnali" M-1 haqli yuklarni temir yo'llar, suv pristanlari, transport ekspeditsiyasi idoralaridan olish va ularni xo'jalik yurituvchi sub'ekt omboriga kiritish bilan bog'liq transport, tovarga oid va boshqa hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun qo'llaniladi.

Jurnalga transport va yuk hujjatlari, kiritish orderlari, TMZni qabul qilish dalolatnomalaridagi ma'lumotlar asosida yozib boriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt omboriga TMZlarni qabul qilishiga qarab jurnalga kirim orderlar (yoki qabul qilib olish aktlari)ning tartib raqamlari va kelib tushish sanalari yozib boriladi yoki schyoti to'langanligi haqida axtaruv summasi bilan bog'liq so'rovnoma to'g'risida belgi qo'yiladi.

"Ishonchnoma" M-2 shakli lavozimdor shaxsning TMZlarni olish chog'ida xo'jalik yurituvchi sub'ektning huquqini rasmiylashtirish uchun xizmat qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasi ishonchnomani oluvchiga bir nusxada berib, undan tilxat oladi.

"Ishonchnoma" M-2a shaklini ishonchnoma bo'yicha TMZlar doimiy tusda olinadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlatadi. Bunday ishonchnomalarning berilish oldindan nomerlangan va tikib qo'yiladigan berilgan ishonchnomalarni hisobga olish jurnalida ro'yxatdan o'tkaziladi (M-3 shakl).

M-1 shakl

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKT²
Kelib tushadigan yuklarni hisobga olish
JURNALI
 ___oyi_____ uchun.

Ro'yxatga olish raqami	Sana	Material yetkazib beruvchi	Transport hujjat		Tovar hujjat				Tilxat	Kirim order		Yuk axtaruv haqida so'rovnoma		Izoh
			Sana	T/r	Sana	T/r	Yuk turi	summa		Sana	T/r	Sana	T/r	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

² „Moliyaviy Hisob“ I.Ochilov J.Qurbonboyev.

"Berilgan ishonchnomalarni ro'yxatga olish jurnali" M-3 shaklida beriladigan ishonchnomalar va ular olingani to'g'risidagi tilxatlar ro'yxatdan o'tkaziladi.

M-2 shakldagi ishonchnomadani foydalanishda olinganlik va berilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar ishonchnoma koreshogida qayd qilinadi. Bu holda jurnalda berilgan ishonchnomalar hisobga olib borilmaydi. "Kirim-orderi" M-4 shaklida xo'jalik yurituvchi sub'ekt omboriga mol etkazib beruvchilardan yoki kayta ishlovdan kelib tushgan TMZlar hisobi olib boriladi. TMZlaromborga kelib tushgan kuni moddiy javobgar shaxs bir nusxada kirim orderini tuzadi. Kirim orderlarining blankalari moddiy javobgar shaxslarga oldindan nomerlangan holda topshiriladi.

"Materiallarni qabul qilish dalolatnomasi" M-7 shakli shunday TMZlarni qabul qilish uchun rasmiylashtiriladiki, ularga doir ma'lumotlarda mol etkazib beruvchi ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlar bilan miqdor borasida tafovutlar mavjud bo'ladi, shuningdek, hujjatsiz kelib tushgan TMZlarni qabul qilishda ham tuziladi.

Qabul hay'ati moddiy javobgar shaxs va mol etkazib beruvchining vakilining ishtirokida ikki nusxada akt tuziladi va aktni xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tasdiqlaydi. TMZlar qabul qilib olingan hujjatlar ilova qilingan aktlarning bittasi xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasiga moddiy qiymatlarni hisobiga olish uchun, boshqasi mahsulot etkazib beruvchiga topshiriladi.

TMZlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektga o'z vaqtida keltirilishining ta'minot bo'limi nazorat qiladi. Bu bo'lim xodimlari mol etkazib beruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishini tekshirib, ularga TMZ kamomadi va sifati bo'yicha shikoyat va da'volar qo'yish, xo'jalik yurituvchi sub'ektga o'z vaqtida etib kelmagan yuklarni qidirib topish vazifalarini bajaradilar. Odatda mol etkazib beruvchilar xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan TMZlarni ta'minot bo'limi ekspeditori etkazib beradi. Mol etkazib beruvchi yoki transport tashkilotlaridan TMZlarning qabul

qilinganda ta'minotchi idish va plomba, tamg'a, TMZlar sifatini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida kamomad yoki yuklar sifati buzilganligi aniqlansa, mol etkazib beruvchi yoki transport tashkilotiga da'vo qo'yish huquqini beradigan tijorat dalolatnomasi tuziladi.

Mol etkazib beruvchi yoki transport tashkiloti omboridan TMZlarni olish uchun ta'minotchiga buxgalteriya tomonidan 15 kun muddati bilan ishonchnoma beriladi.

Ishonchnoma olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar ro'yxati xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan imzolanadi. Ishonchnoma yozish uchun asos bo'lib shartnomalar, naryad, to'lovnoma, buyurtmanoma yoki mol etkazib beruvchining boshqa hujjatlari xizmat qiladi.

Ishonchnoma 2013 yil 4 yanvardan amal qiladi «Guliston» korxonasi
(iste'molchining nomi va uning manzili)

(to'lovchining manzili)

Hisobvaraqa: 2020000466988016991 *O'zSQBda*

(bank nomi)

1-SON ISHONCHNOMA

Berilish sanasi 2012 yil 19 dekabr

Kimga berildi *muhandis Ochilov Ilyos Keldiyorovich*

(lavozimi, familyasi, ismi, otasining ismi)

Pasport seriya: SA 0336936

Kim tomonidan berildi *A. Ikromov TIIB*

Berilish sanasi *04.04.1996 yil*

Olishga *«Qo'rg'on TQYu» LTD*

(moddiy boyliklar etkazuvchisining nomi)

20.10.2012 yildagi 86-son to'lovnoma bo'yicha

29.12.2010 (hujjat nomi, raqami va sanasi)

Orqa tomoni

t/r	Moddiy boyliklar	O'lchov birligi	Miqdori (so'z bilan)
1	2	3	4
2	Yo'maloq o'ramda qog'oz	Tonna	Ikki
3	Kitoblar	Dona	Bir yuzta

Ishonchnoma olgan shaxs, *Ochilov I.*, imzosini tasdiqlaymiz.

M.O'.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari (tashkilot) *I. Ibragimov*

Bosh buxgalter *G. Jumanov*

Beriladigan ishonchnomalar eng avval ishonchnomalarni ro'yxatga olish daftarida qayd etiladi. Bu daftar varaqlari oldindan raqamlanib, tiqilib so'rg'uch bilan muhrlanadi. Daftarning oxirgi betida bosh buxgalter imzosi bilan quyidagi yozuv qayd etiladi: «Bu daftarda hisob varaqlar raqamlangan va tikib chiqilgan» Varaqlar soni harf (so'z) bilan yozilishi kerak.

1.1-jadval

Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish daftari³

Ishonchno ma raqami	Berilgan sana	Amal qilish sanasi	Ishonchnoma berilgan shaxsning lavozimi va familiyasi	Ishonchnoma olishga imzo	Mahsulot etkazib beruvchi	Unga asosan boyliklar olingan hujjat raqami va sanasi	Boyliklar kirimini tasdiqlaydigan hujjat raqami va sanasi
1	2	3	4	5	6	7	8
1	03.01.2013	15	Muhandis Ochilov I		«Qo'rg'on TQYu» LTD	86-son to'lovnoma 20.10.2012 yil	8-son kirim orderi, 10.01.2013 yil

³ Moliyaviy Hisob" I.Ochilov J.Qurbonboyev.

Ishonchnoma olgan xodim TMZlar olingandan keyingi birinchi kundan qoldirmasdanunga yuklatilgan vazifani bajarganligi hamda olingan TMZlarni omborga topshirishi shart. Ishlatilmagan ishonchnomalar belgilangan muddati o'tib ketgandan keyingi kunda buxgalteriyaga qaytariladi. Muddati o'tib ketgan ishonchnomalar bo'yicha hisobot bermagan shaxslarga yangi ishonchnomalar berish man etiladi. TMZlarni ombor mudiri yoki omborchi qabul qiladi. Omborga qabul qilish vaqtida omborchi keltirgan TMZlar soni, turi, sifatini mol etkazib beruvchi tomonidan yuborilgan hujjatlar(hisobvaraqa-faktura, to'lov talabnomasi, spitsifikatsiya, tovar transporti, yuk xatlari) bilan solishtirib to'g'ri kelish kelmasligini tekshirib ko'radi. Keltirilgan TMZlar mol etkazib beruvchining hujjatlari bilan muvofiq bo'lsa, omborchi kirim-orderi tuzadi.

Kirim

operatsiyalari soni kam bo'lganda mol etkazib beruvchi hujjatiga muhr qo'yishga ruxsat etiladi.

1.2-jadval

”Gulistonkorxonasi⁴”

1-SON KIRIM ORDERI

2013 yil 16 yanvar

Operatsiya Turi	Ombor	Yetkazib beruvchi		Korrespondentsiyalanadigan hisobvaraqa		Kod (nomenklatura raqami)
		Nomi	Kod	hisobvaraqa, ilova hisobvaraqa	Kirim qilishga asos bo'lgan to'lovnoma yoki boshqa hujjatning ro'yxat raqami	

⁴ „Moliyaviy Hisob“ I.Ochilov J.Qurbonboyev.

		Yarashev		1011		13
--	--	----------	--	------	--	----

Nomi, navi, miqdori, markasi TMZ deraza bloklari

O'lchov birligi		Miqdori		Narxi	Summasi	Ombor kartotekasi bo'yicha yozuvning tartib raqami
Nomi	kod	hujjat bo'yicha	Qabul qilingan narxi			
1	2	3	4	5	6	7
Kitoblar		200	200	500	100000	11

Qabul qildi *Rajabov Z. Topshirdi Azizov Sh.*

Haqiqatda kirim qilingan TMZlar va yuborilgan hujjatlar orasidagi tafovut aniqlansa, TMZlarni qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. (jadvalga qaralsin) Bu dalolatnomamol etkazib beruvchi yoki boshqa manfaatdorlarni xo'jalik yurituvchi sub'ekt vakillari, ombor mudiri va ta'minot bo'limi vaqilining albatta ishtirokida komissiya tomomnidantuziladi. Dalolatnoma tuzilganda kirim orderi rasmiylashtiriladi.

Mavjud tovar hujjatlariga muvofiq kelmaganda tuziladigan dalolatnoma

X o ' j a l i k y u r i t u v c h i s u b ' e k t

Tovar(TMZ) qabul qilinganda miqdor va sifatdagi tafovutni belgilash to'g'risida 1-sonli

DALOLATNOMA

2013 yil 13 mart

Dalolatnoma tuzilgan joy *Xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari*

Komissiya tarkibi: *direktor Ibragimov I., ombor mudiri Quziev I., etkazib beruvchining vakili Husinov I.*

K tovar (TMZ)ni qabul qildi va miqdor *bo'yicha kamomadni aniqladi*

(n o m i v a m a n z i l i)

Tovar olinuvchiliki	Etkazib beruvchiliki	Yuk jo'natuvchiliki	Tovar ishlab chiqaruvchiliki (fabrika, artel)
«Guliston» KK, Toshkent sh.,Chilonzor, 24- mavze, 6-uy	«Hamza» sollecion, Farg'ona sh., Qoraqamish., 10.1	Fabrikaning o'zi	Fabrikaning o'zi

Yuklab jo'natish asosi (shartnoma, bitim, buyurtma)

2002 yil 1 martdagi 18-son shartnoma

Etkazib beruvchining hisobvaraqa-faktura *2003 yil 3 martdagi 381-son*

Transport yukxati *2003 yil 3 martdaig 18-son*

Jo'natish bekati *Toshkent*

Yuborilish bekati *Toshkent – 2-tovar bekati*

Tovar belgilangan vaqtda keldi *2003 yil 12 martda, soat 8:00*

Tovar oluvchining omboriga kelib tushdi *2003 yil 13 martda*

Hujjatlar bo'yicha brutto vazni	Etkazib beruvchiliki, kg	Jo'natish bekati, kg	Yuborilish bekati, kg
Etkazib beruvchiliki	525	525	525

Tovar dalolatnomasini tuzish uchun tovar oluvchining omborida o'rovdan ajratib, idishlardan olinib (keraksizi o'chirilsin) taqdim etiladi. Tovarni saqlash sharoitlari uni ochgunga qadar qoniqarli.

Dalolatnoma tuzilayotgan tovar turkumida Tovar oluvchining omborida aniqlangan joylar soni va vazni bo'yicha tafovutlar	Joylar soni	Brutto (kg)	Idish (kg)	Netto (kg)
Etkazib beruvchining hisobvara-fakturasi bo'yicha	305	315		315
Haqiqatda kelib tushdi	300	315		315
Tafvutlar	5			

Dalolatnoma tuzilgan paytda idish va o'rovlar holati *qoniqarli*.

Dalolatnomani to'ldirish rejasi to'rt dan uch qismiga. Idishni tamg'alash va uni transport yuk xati ko'rsatmalariga muvofiqligi etkazib beruvchining hujjatlariga muvofiq keladi. Sifatga doir va boshqa nuqsonlarning bayoni mahsulot tegishli sifat va nomda kelib tushadi. bO'rovning butligi kamomad etkazib beruvchining aybi bilan yuz bergani to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Tovarni qabul qilishda belgilanadi:

Preysko'rant bo'yicha to'r	Joy №, tovar nomi va artikuli	O'lchov birligi	Etkazib beruvchining hujjati bo'yicha				Haqiqatda mavjud				Kamo mad		Ortiqcha		Nuqson qisqacha bayoni	Narxni pasaytiri sh	
			Nav	soni	narxi	summa	Nav	soni	narxi	summa	soni	summa	soni	summa		soni	summa
	Ip kalava g'altakda 5 kg	dona	1	1.05	100	10000	1	100	100	10000	5	5000			g'altak etishmasligi		

Mahsulot etkazib beruvchining to'lovnomasi sanalgan boshqa tovarlar bo'yicha sifat va son bobida tafovutlar yo'q.

Komissiya a'zolari: *Isoev M., Toshmatov D., Kamolov G'*.

Materiallarning ichki bir ombordan boshqa omborga, bir tsexdan boshqa tsexga siljishi ishlab chiqarishda foydalanilmagan TMZlarni chiqindilarini omborga qabul qilish yuk xatlari bilan rasmiylashtiriladi.

Ombordan tsexlarga TMZlar muntazam berib borilsa, k holda limit olish kartalari qo'llaniladi. Limit olish kartasi xo'jalik yurituvchi sub'ektning (uchastkaga) reja bo'limi(yoki dispetcherlik xizmati) tomonidan yoziladi. Unda shu tsexga berilish lozim bo'lgan TMZ ma'lum turining oylik cheklangan me'yorini oldindan ko'rsatiladi.(Jadvalga qarang). Limit kartasi ikki nusxada yoziladi, bir nusxasi omborga, ikkinchi nusxasi tsex(uchastkaga) –iste'molchiga beriladi. Materiallar berilgandan keyin omborchi limit kartochkaning tsex nusxasiga imzo qo'yadi, oluvchi esa omborchining nusxasiga o'z imzosini qo'yadi.

1.3-jadval.

LIMIT OLISH KARTASI

3-son limit kartasi 04.2003 y.	Tsex	mahsulot nomi	Bir oyga limit			
			Soni		Imzolar	
		Ip kalava	50 kg		Ochilov I	
Ombor	Nomenklat. №	Materiallar nomi	Navi Hajmi	Navi Hajmi	O'lchov	birligi
			1	kg		2220
Sana	Talab qilindi		Berildi			
	soni	Tsex boshlig'i	soni	Oy boshidan	Imzolar	
12.01.13	10	Ochilov I	10	10	Boltayev A	
22.01.13	15	Ochilov I	15	25	Boltayev A	
28.01.13	15	Ochilov I	15	40	Boltayev A	
			Va h.k			

Omborchi har bir muomaladan keng foydalanilmagan limit qoldig'ini aniqlaydi. Limit etmagan taqdirda limitdan tashqari TMZlar xarajati talabnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ishlab chiqarishda tsex xodimlari moddiy javobgar shaxs bo'lgan holatda ular tomomidan har oyda xarajatlangan TMZlar to'g'risida moddiy hisobot tuzilib, buxgalteriyaga topshiriladi, bunda limit olish kartalari rasmiylashtiriladi. Qaytarilgan chiqindilarni topshirish ishlab chiqarishda foydalanmagan TMZlarni qaytarish, ombordan omborga TMZlarni o'tkazish TMZlarni boshqa tashkilotlarga yoki shaxslarga sotish yuk xatlari nakladnoy bilan rasmiylashtiriladi. Ombordan TMZlarni boshqa hujjatlar bo'yicha hamda turli xatlar yoki (egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar) , mansabdor shaxslarning og'zaki farmoyishlari asosida mahsulotni ombordan berish taqiqlanadi. Omborga kelib tushgan ,lekin kirim hujjatlari bilan rasmiylashtirilmagan TMZlarni berishga ham yo'l quyilmaydi.

Operatsiya turi	Ombor	Oluvchi

Berishga ruxsat berildi *S. Axmedova*

1.4-jadval

MATERIALLAR XARAJATLANISHI BO'YICHA⁵

10-SON YuK XAT

2012yil 10 dekabr

Berildi *M. Ixtiyorovaga*

Berish asosi *4-son ishonchnoma*

Xarajat shrifti	Nomenklatura raqami	nomi	O'lchov birligi	Soni		narxi	Summa
				Talab qilindi	Berildi		
1	2	3	4	5	6	7	8
	6	«V» TMZ	kg	20	20	2000	40000
		Jami					40000

⁴ „Moliyaviy Hisob“ I.Ochilov J.Qurbonboyev.

Boylıklarni berdi *N. Rizaev* Boyliklarni qabul qildi: *B. Bo'riev*.

1.5-jadval

Materiallarni xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida olib o'tishga

6-SON YuKXAT

2012 yil 23 dekabr

Operatsif Turi	Tsex (bo'lim) uchastka yuboruvchi	Tsex, ob'ekt ombor oluvchi	Korrespondentlanuvchi hisrbvara		Kod, Nomenk- latura raqami
			hisobvara	tahliliy hisob shifri	
40	02	06	10	1012	1001107

Nomi, navi, hajmi, markasi *Boltlar 10 x 30 mm*

Berdi *Ishmuhammedov U. Oldi Umarov D.*

Kirim va chiqim hujjatlari operatsiya sodir bo'lgan kunida rasmiylashtiriladi.

Mol etkazib beruvchilardan TMZlarni etkazib bergan chog'ida kamomad summasini aniqlash tartibini kurib chiqamiz:

(so'm hisobida)

T/r	Ko'rsatkichlar	Material qiymati va ta'rifi	Ko'shilgan qiymat solig'i	Summa hisobi
1.	To'lash uchun taqdim etilgan.	60000	12000	72000
a.	TMZlar qiymati.	8000	1600	19600
b.	O'rni to'ldirilgan temir yo'l ta'rifi.			
	jami	68000	13600	91600
2.	Yuk qabulida aniqlangan.	9000	1800	10800
a.	Materiallar kamomadi.	1197	239	1436
b.	Kamomadga to'g'ri keladigan temir yo'l ta'rifi			
	jami	10197	2039	12236
	Kirim qilinadi (1satr - 2satr)	57803 1010 schyot Dt	11561 6410 schyot Dt	79364

Kamomadning umumiy summasini aniqlash uchun: 1. Temir yo'l tartibi summasining (8000 so'm) qo'shilgan qiymat solig'isiz (QQS) sotuv narxlari bo'yicha TMZlar qiymatiga foizli nisbatini aniqlash lozim. U 13,3%ni tashkil etadi.(8000 so'm: 60000 so'm x 100%). 2. QQS ni hisobga olgan holda kamomad summasini aniqlash lozim. U 12236 so'mga teng (9000so'm + 1197 so'm x 1,20).

Yuk schyoti to'langandan sung kelib tushgan bo'lsa quyidagi yoziladi:

1010 schyot debeti – 57803 so'm.

6410 schyot debeti – 11561 so'm.

6210 schyot debeti – 12236 so'm.

6010 schyot krediti – 91600 so'm.

Agar yuk kelib tushgan paytda xo'jalik yurituvchi sub'ekt etkazib beruvchining schyotini to'lamagan bo'lsa, bu yuk haqiqiy etkazib berilishi bo'yicha kirim qilinadi.

1010 schyot debeti – 57803 so'm.

6410 schyot debeti – 11561 so'm.

6010 schyot krediti – 79364 so'm.

Buxgalteriya hisobi schyotlarda faktura qilinmagan va yo'lda kelayotgan TMZlar bo'yicha muomalalarni aks ettirish paytida, ayniksa kip xatolar uchraydi. Mol etkazib beruvchidan TMZlar ularni tilash uchun schyoti kursatilmasdan oldin mol etkazib berilsa, ular faktura qilinmagan hisoblanadi. Bu holda TMZlar QQS siz xarid narxlari bo'yicha kirim qilinadi. Mol etkazib beruvchining schyoti kelib tushganda xarid narxlari bo'yicha TMZlar qiymatining avvalgi yozuvi stornirovka qilinadi va to'lov uchun kursatilgan schyot summasiga natijali yozuvqilinadi.

Masalan, yanvarda 66000 so'mlik yuk faktura qilinmasdan etkazildi. Fevralda to'lash uchun 83400 so'm taqdim etildi, bunga QQS ham kiradi.

Quyidagi yozuvlar qilinadi:

Yanvarda: 1010 schyot Debeti – 66000 so'm

6010 schyot Krediti (QQS hisobga olinmaydi.)

Fevralda: a) stornirovka yozuvi: 1010 schyot Debeti – 66000 so'm

6010 schyot Krediti - 66000 so'm

b) natijali yozuv: 1010 schyot Debeti – 66000 so'm

6410 schyot Debeti – 17400 so'm.

6010 schyot Krediti – 83400 so'm.

Faktura qilinmagan yuklar oy oxirida moddiy boyliklar va to'lash uchun taqdim etiladigan schyotlarning amaldagi kelib tushishi xaqidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Mol etkazib beruvchi o'z vaqtida ogohlantirildi: unga TMZlar qabuli hakida dalolatnoma ilova qilingan xat yuboriladi (M-7 shakl).

Agar haqi to'langan bo'lsayu (6010 schyot Dt, 5110 schyot KT) oy oxirigacha kelib tushmasa TMZlarni xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasi hisobot oyida shartli ravishda (1010,1210 schyot Dt, 6010 schyot Kt) kirim qiladi. Bu TMZlarni xo'jalik yurituvchi sub'ekt balansida ishlab chiqarish zahiralari tartibida aks ettirish uchun shunday qilinadi. Keyingi oyda TMZlar o'sha korrespondentsiyada stonirovka yozuvi bilan qayd etiladi; bk amalda kelib tushganligiga qarab yana kirim qilinadi.

Materiallar harakatini hisobga olish bo'yicha hujjatlar.

Materiallar korxonaga o'z vaqtida keltirilishini ta'minot bo'limi nazorat qiladi. Bu bo'lim xodimlari mol yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishini tekshirib, ularga materiallar kamomadi va sifati bo'yicha shikoyat va da'volar qo'yish, korxonaga o'z vaqtida yetib kelmagan yuklarni qidirib topish vazifalarini bajaradilar. Mol yetkazib beruvchidan materiallarni taminot bo'limi ekspeditori yetkazib beradi. Mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkilotlaridan materiallarni qabul qilganda ta'minotchi birinchi navbatda idish va tamg'a holati sharoitlarining buzilmaganligiga amin bo'ladi, materiallar sifatini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida kamomad yoki yuklar sifati buzilganligi aniqlansa, mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkilotiga da'vo qo'yish huquqini beradigan tijorat dalolatnomasi tuziladi. Mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkiloti omboridan materiallarni olish uchun ta'minotchiga buxgalteriya tomonidan 10

kundan oshmaydigan muddatga ishonchnoma beriladi. Ishonchnoma olish huquqiga ega bo'lgan hodimlar ro'yxati korxonada rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Ishonchnoma korxonada rahbari va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi. Korxonada tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yetkazib beruvchilardan Tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchli shaxsga berilgan yozma vakolat **ishonchnoma** deb tan olinadi. Ishonchli shaxs unga ishonchnoma bo'yicha berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladi. Ishonchnomalar yetkazib beruvchi tomonidan shartnoma va boshqa bitimlar bo'yicha beriladigan Tovar-moddiy boyliklarni olishga beriladi. Berilgan ishonchnomalar "Ishonchnomalar jurnalida" "ro'yxatga olish bilan" asmiylashtiradi.

Ishonchnomalar daftari raqamlanadi va ip bilan tikiladi. Daftarning so'ngi varag'ida korxonada rahbari yoki u tomonidan belgilangan shaxslarning imzosidan keyin "Mazkur daftarda ... varaq raqamlandi" degan yozuv qayd etiladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaq soni yozuv bilan ko'rsatiladi. Ishonchnomalar korxonada buxgalteriyasi tomonidan ishonchnomalarni hisobga oladigan, raqamlangan va ip bilan tikilgan "Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish jurnali" da ro'yxatdan o'tkaziladi. Jurnalning so'nggi varag'ida korxonada rahbari rahbari yoki u tomonidan belgilangan shaxslarning imzosidan keyin "Mazkur daftarda ... varaq raqamlandi" degan yozuv qayd etiladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaq soni yozuv bilan ko'rsatiladi. Ishonchnomalar daftari va berilgan ishonchnomalarni hisobga olish jurnali ishonchnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxsda saqlanishi mumkin. Ishonchnomaning amal qilish muddati u asosida ishonchnoma berilgan shartnomalar va boshqa bitimlar bo'yicha tegishli boyliklarni olish va olib chiqib ketish imkoniyatiga bog'liq ravishda belgilanadi, biroq u qonun hujjatlarida belgilangan muddatdan oshmasligi kerak. Ishonchli shaxsni unga berilgan, amal qilish muddati hali tugamagan ishonchnomalar bo'yicha boyliklarni olish huquqidan mahrum qilish chog'ida Tovar-moddiy boyliklarni oluvchi tegishli ishonchnomalarning darhol bekor qilinganligi haqida yetkazib beruvchini xabardor qiladi. Bunday

xabarnoma olingan paytdan boshlab bekor qilingan ishonchnoma bo'yicha boyliklarni berish to'xtatiladi. Bunday hollarda bekor qilingan shartnomalar bo'yicha boyliklarni berganlik uchun yetkazib beruvchi javobgar bo'ladi. Ishonchli shaxs boyliklarni olgandan so'ng topshiriqlar bajarilganligi va u olgan Tovar-moddiy boyliklar omborga topshirilganligi to'g'risida hujjatlarni korxonaga buxgalteriyasiga yoki tegishli moddiy javobgar shaxsga taqdim etishi shart. Foydalanilmagan ishonchnomalar amal qilish muddati tugagan kundan keyingi sanada uni bergan korxonaga qaytarilishi kerak. Foydalanilmagan ishonchnomaning qaytarilganligi to'g'risida ishonchnomalar daftarining tubida va berilgan ishonchnomalarni hisobga olish jurnalida ("Ishonchnoma bo'yicha topshiriqlar bajarilganligi to'g'risida qaydlar" ustunida) qayd etiladi. Qaytarilgan foydalanilmagan ishonchnomalar "foydalanilmagan" yozuvi bilan tasdiqlanadi va ularni ro'yxatdan o'tkazish uchun javobgar bo'lgan shaxs tomonidan hisobot yili oxiriga qadar saqlanadi. Yil tugagach bunday foydalanilmagan ishonchnomalar bu haqda tegishli dalolatnoma tuzish bilan belgilangan tartibda yo'q qilinadi. Korxonaga ishonchnomalari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni berish quyidagi hollarda amalga oshirilmaydi:

- to'ldirish tartibini buzgan holda yoki to'ldirilmagan rekvizitlar bilan berilgan ishonchnomalar taqdim etilganda;
- tuzatilgan va bo'yalgan joylari mavjud bo'lgan ishonchnomalar taqdim etilganda;
- ishonchnomada ko'rsatilgan passport taqdim etilmaganda;
- ishonchnoma berilgan muddat tugaganda;
- qabul qilib oluvchidan ishonchnoma bekor qilinganligi to'g'risida xabar olinganligida;
- uning nomidan ishonchnoma berilgan yuridek shaxsning faoliyati to'xtatilganda;
- ishonchli shaxs layoqtsiz, cheklangan layoqatli deb tan olinganda.

Materiallarni omborga ombor mudiri yoki omborchi qabul qiladi. U keltirilgan materiallar soni, turi, sifatini mol yetkazib beruvchi tomonidan

yuborilgan hujjalar (schiyot-faktura, to'lov talabnomasi, spesifikasiya, tovar-transport yukxatlari)ga muvofiqligini tekshiradi. Keltirilgan materiallar mol yetkazib beruvchining hujjatlariga to'la muvofiq bo'lsa, omorchi ***kirim orderi*** tuzadi. Mol yetkazib beruvchining hujjatiga kirim orderining asosiy rekezitlarini mujassamlashtirgan muhr qo'yishga ruhsat etiladi.

Haqiqatda kirim qilingan materiallar va yuborilgan hujjatlar orasida tafovut aniqlansa, *materiallarni qabul qilish dalolatnomasi* rasmiylashtiriladi. Bu dalolatnoma mol yetkazib beruvchi yoki xolis korxon vakili, ombor mudiri va ta'minot bo'limi vakilining majburiy ishtirokida komissiya tomonidan tuziladi. Dalolatnoma tuzilganda kirim orderi rasmiylashtirilmaydi.

Materiallarning bir ombordan boshqa omborga ichki harakati yoki ishlab chiqarishda foydalanilmagan materiallar, shuningdek chiqindilar topshirilishida ***yukxat*** tuziladi, rasmiylashtiriladi. Hisobdor shaxslar tomonidan materiallarni jismoniy shaxslardan xarid qilganlarida ular materiallar naqd pulga xususiy shaxslardan xarid qilishda tuziladigan dalolatnoma yoki ma'lumotnoma bo'yicha boyliklarni topshiradilar. Chiqim hujjatlari materiallarni ishlab chiqarish ehtiyojlariga (mahsulot tayyorlash), xo'jalik ehtiyojlariga (binolarni ushlab turish, tamirlash ishlari) nolikvid materiallarni sotishga jo'natishni aks ettiradi. Bularga talobnoma cheklab olish xaritalari, yukxatlar kiradi. Materiallarning bir marotaba, kam takrorlanadigan jo'natilishi talabnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatlar iste'molchilar, yani sex, bo'lim va uchastkalar tomonidan rasmiylashtiriladi. Ombor xodimlariga materiallarni boshqa hujjatlar bo'yicha hamda turli xatlar yoki mansabidan qat'iy nazar mansabdor shaxslarning og'zaki farmoyishlari asosida mahsulotni ombordan berish taqiqlanadi. Omborga kelib tushgan, lekin kirim hujjatlari bilan rasmiylashtirilmagan materiallarni berishga ham yo'l qo'yilmaydi. Kirim va chiqim hujjatlari operatsiya sodir bo'lgan kunida rasmiylashtiriladi.

Ombordagi materiallar hisobi: Omborlarda materiallar hisobi omborchi tomonidan miqdor, turkum va sort bo'yicha ombor hisobi varaqlari bilan olib boriladi. Ombor hisobi varaqlari materiallarning har biri turi, navi, xili bo'yicha

buxgalteriya tomonidan alohida ochiladi. Olingan ombor hisobi varaqasida omborchi ushbu materiallar saqlanadigan joyni (tokcha, yacheyka va x.k.) yozib qo'yadi. Saqlanadigan joyga materiallarning yorlig'I biriktiladi. Har kuni yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar asosida omborchi bu varaqlarga miqdor jihatidan materiallarning qoldig'ini hisoblab chiqaradi. Jadvalda belgilangan muddatlarda omborchi kirim va chiqim hujjatlarini topshirish ro'yxatini ikki nusxada yozadi. Ro'yxatning birinchi nusxasiga birlamchi hujjatlarni tikib, uni buxgalteriyaga topshiradi. Buxgalter bu ro'yxat va unga biriktirilgan hujjatlarni sinchiklab tekshirib chiqadi, keyin tekshirilganligini ro'yxatning ikkinchi nusxasida imzo bilan tasdiqlaydi, tasdiqlangan nusxa omborchida qoladi. Buxgalter ombordagi eng avvalo kamyob, qimmatbaho materiallarning haqiqiy qoldiqlarini tanlab nazoratdan o'tkazib, bu to'g'rida varaqlarga Moddiy javobgar shaxslarning ishida aniqlangan kamchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilagan holda tekshirish sanasini va imzo qo'yib tasdiqlaydi. Tanlab tekshirish natijalari bo'yicha maxsus ombor daftariga bildirishlar yozilib bosh buxgalterga xabar qilinadi. Har oyning birinchi kuni holati bo'yicha moddiy javobgar shaxs varaqalardagi miqdor qoldiqlarni materiallar qoldig'ini hisobga oluvchi saldo daftariga ko'chiradi. Bu daftar har bir ombor uchun alohida bir yilga ochiladi. U buxgalteriyada saqlanib oyning oxirgi kunida omborchiga beriladi, hisobot oyidan keyingi oyning 1-2 sanasida omborchi bu daftarni to'ldirgan holda buxgalteriyaga qaytaradi. Omborchidan ilova qilingan hujjatlar bilan ro'yxatni olgandan so'ng, buxgalter kirim va chiqimlarning puldagi ifodasini aniqlaydi, yani taksirofka qiladi. Buning uchun 10-son "moddiy mablag'lar harakati" qaydnomasi qo'llaniladi. Bu qaydnoma 2 bo'limdan: "Materiallar kelishi va oy boshiga qoldiqlari" va "Materiallar sarfi va oy oxiriga qoldiqlari" dan iborat. Hisobot oyi davomida materiallar harakati hisob narxlarida aks ettiriladi. Oyning oxirida transport-tayyorlov xarajatlari yoki materiallarning haqiqiy va reja tannarxlari orasidagi farq summasi hamda foizi aniqlangandan keyin hisob qiymati haqiqiy tannarxgacha yetkaziladi. Materiallarning jamlama hisobi 1010-1090 hisobvaraqlarda yuritiladi.

II Bob. “TOVAR MODDIY ZAHIRALAR HISOBI” MAVZUSI BO’YICHA DARS O’TISHDA SAMARALI METODLARNI QO’LLASH AMALIYOTI

2.1. Dars jarayonini tashkil etish va mavzuni o’rganish uchun metodlarni tanlashning roli, ahamiyati va me’zonlari

Hozirgi paytda, tayyor bilimni o’zlashtirish asosiy maqsad bo’lmay, eng asosiysi, talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko’nikmasini hosil qilish ob’ektiv zaruriyatga aylandi. Bu maqsadni amalga oshirish esa ko’p jihatdan dars o’tish metodlarini tanlashga bog’liq.

Har qanday fanni o’rganishda turli metodlar qo’llaniladi. Buning sababi, birinchidan, dars o’tishda turli uslublarni qo’llash *uni qiziqarli bo’lishiga, talabalarni diqqatini o’tilayotgan darsni o’zlashtirishga qaratiladi*⁶. Bir xil metodda dars o’tilaverishi talabalarni zeriktiradi. Psixologlar tadqiqotlariga ko’ra har qanday mohir o’qituvchi ham bir xil metodni qo’llab dars berar ekan, aytaylik, ma’ruza o’qir ekan, talabalar dastlab 20 minut, so’ngra darsni tugashidan oldin 20 minut ma’ruzani diqqat bilan eshitar, qolgan paytda xayolga berilib ketar ekan. **Ikkinchidan**, talabalarning darsni o’zlashtirish, bilimni qabul qilish qobiliyatlari har xil bo’lib, turli uslublarni qo’llashgina o’tilayotgan mavzuni talabalar tomonidan nisbatan to’liq o’zlashtirishga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bilimni o’zlashtirish jarayonida mavzuni tezroq anglashga bir xil talabalarga bir uslub yordam bersa, ikkinchilariga boshqa uslub yordam beradi. **Uchinchidan**, dars o’tish metodlari talabalarni fikrlash doirasini shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham, barcha pedagoglar talabalarga bilim berishning eng samarali yo’li, dars o’tishga turli metodlarni qo’llash zarur degan fikr tarafdori bo’lib, aynan qaysi metod qaysi kategoriyadagi talabalar uchun qo’llanilishi ma’qulligi bo’yicha esa yagona qolip yo’q, Jahon pedagogikasi tajribasi shuni ko’rsatadiki, **tahliliy fikr**

⁶ „Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi“ o’quv qo’llanma D.Tojiboyeva T.2007

yuritadigan talabalardangina muvaffaqiyat bilan ishlovchi biznesmenlar, siyosiy liderlar(sardorlar), fan arboblari etishib chiqadi. **Tahliliy fikrlash mustaqil fikrlashdir.** Har bir kishining fikr yuritishi individual xarakterga ega bo'lib, boshqalarnikidan ajralib turadi. Axborot esa tahliliy fikrlashning boshlang'ich nuqtasidir.

G'arb olimlari tomonidan chop etilgan uslubiy bilim berish uslubiga ta'sir etuvchi parametrlarga:

- a) har bir talabanig individual xususiyatlari;
- b) axborotni qayta tiklash qobiliyati;
- v) talabalarni bir biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi, hamkorlik qilish xislatlarini kiritishadi.

1. Har bir kishining – individual, o'ziga xos xususiyatlari inson tomonidan axborot qabul qilishda ham ifodalanadi. U boshqa omillar bilan birga uning shaxsiy xususiyatlariga ham chambarchas bog'liq.

Psixologlar odamlarni introvert va ekstravert guruhlariga bo'lishadi: Introvert tipidagi talabalar ko'proq individual qatnashish ustun dars o'tish uslublarini yoqtirishadi. Masalan, ma'ruza eshitish, kitob o'qish, adabiyotlarni **konspekt qilish, nazorat ishi, referat, doklad yozish** kabilar.

Ekstravert guruhidagi talabalar o'qitishning faol turlarini, boshqalar bilan hamkorlikda bajariladigan uslublarni yoqtirishadi. Masalan, kichik guruhlarda ishlash, modellashtirilgan o'yinlar o'tkazishda qatnashish kabilar.

2. Insonda olgan axborotni qayta ishlash qobiliyati ham turlicha. Talabalar bilim olish, olgan axborotlarini yodda saqlash, tushunish va qo'llashda ham birbiridan farq qiladilar. Ba'zi talabalar uchun verbal (so'zda ifodalangan) axborot, masalan, ma'ruza eshitish yoki radio orqali tinglash etarli. Boshqalari uchun esa vizual (ko'rish) axboroti muhim. Ular ko'rgazmali qurollar: jadval, sxema, grafik. diagramma kabilar orqali mavzuning mazmuniga tez tushunishadi.

Uchinchi guruh talabalar uchun kinestetik (O'ZI qatnashuvchi) axborot foydali. Ular o'qitishning aktiv uslublari, modellashtirilgan o'yinlarda rol o'ynash orqali axborotni yaxshi o'zlashtiradilar.

3. Talabalar ko'p narsalarni bir birlaridan o'rganishadi. Shuning uchun talabalarni birbirlariga ta'sir ko'rsatish, hamkorlik qilishga asoslangan dars o'tish metodlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, ba'zilar mustaqil, birinchi bo'lishga intilishi bilan ajralib turadi. Ular alohida o'qishni ma'qul ko'radi. Ularga debat, munozara olib borish, konkursarga qatnashish yoqadi. Boshqalar yolg'izlikdan ko'ra hamkorlikda o'qishga moyil. Ular uchun kooperatsiyalashgan o'qitish uslublarni qo'llagan ma'qul. Ba'zi talabalar aniq faktlar, ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi. Boshqalari nazariy matematik modellarni yoqtiradi. Ba'zi talabalar ko'rgazmali rasmlar, diagrammalar orqali, boshqalari munozara qilganda, uchinchilari esa amaliyotda o'zi bajarishda qatnashsa yaxshiroq, puxtaroq o'rganadi.

Umuman olganda, ta'limtarbiyaning metodlari qotib qolgan emas. Vaqt o'tishi bilan ular o'zgaradi. Talabalarni bilim olishi va olgan axborotini qayta ishlashi uchun turli tuman metodlarni o'ylab topib, qo'llash mumkin. Ayniqsa, hozirgi paytda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun juda ko'p sohalarga bilishning turli usullarini qo'llash va bilim berishda moslashuvchanlik, rangbarang pedagogik metodlar qo'llash talab etiladi. O'qituvchilarni dars jarayonida turli uslublarni, o'quv topshiriqlarini qo'llab, talabalarda bilim olishga ishtiyoq uyg'otishlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning qobiliyatini, ularni individualligini hisobga olgan holda turli metodlarni qo'llash, albatta,

O'zlashtirish natijasini ko'taradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchitalabalarni barkamol, chuqur bilim egasi, mustaqil fikrlaydigan inson bo'lib shakllanishi faqat individual xususiyatlariga bog'liq emas. Ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim omil, ta'lim berish jarayonini tashkil etishdir. Ta'lim berish jarayonini tashkil etishda esa o'qitish shakllari va metodlari asosiy rol o'ynaydi. Ayniqsa, ta'lim metodlarini tanlash katta ahamiyatga ega. O'quv

metodlarini tanlashda esa uning samaradorligini e'tiborga olish zarur. Pedagog olimlarning tadqiqotlari bo'yicha o'qitish jarayonida berilgan axborotni eslab qolish qo'llanilgan metodlarga ko'ra quyidagicha ko'rinishda aks etar ekan Biz ma'ruza, doklad eshitar ekanmiz uning 5 foizini, o'qigan materiallarimizni 10 foizi, video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rganimizni 20 foizini, tajribani namoyish qilinganida ko'rgan va eshitganlarimizni 30 foizini, munozaraga kirishsak, birga muhokama qilganimizni 40 foizini, mashq echar ekanmiz, o'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50 foizini eslab qolar ekanmiz. Ishbilarmon o'yin, loyiha metodi, mustaqil o'qiganlarimiz, tahlil qilganlarimizni muhokama qilish samarali metod ekan. Buning natijasida talabalar ongida ma'lumotning 75 foizi saqlanib qolar ekan. Lekin, o'quvnamaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarning birbirlariga o'rgatishlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 foiz ma'lumot o'zlashtiriladi.

Insonning esda saqlash xotirasi – biokompyuterdir. Odatda, olingan axborotning juda ko'pi qisqa muddat yodimizda saqlanadi.

O'qitish «piramida»

A X B O R O T N I E S L A B Q O L I S H

- 1. Ma'ruza, doklad. Eshitganimizning 5 foizi;*
- 2. O'qish. O'qiganimizning 10 foizi;*
- 3. Video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rish. Ko'rganimizning 20 foizi;*
- 4. Tajribani namoyish qilish. Ko'rgan va eshitganimizning 30 foizi;*
- 5. Munozara. Birga muhokama qilganimizning 40%;*
- 6. Mashq. O'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50%;*
- 7. Ishbilarmon o'yini, loyiha usuli. Mustaqil o'qiganlarimizning, tahlil qilganlarimizning, muhokama, himoya va yozganlarimizning, namoyish qilganlarimizning 75 foizi;*
- 8. Boshqalarni o'qitish. Boshqalarni o'qitgan narsalarimizni 90 foizi.*

Boshqa yangi axborotni qabul qilar ekanmiz, avvalgi axborot xotiradan ko'tarilib ketadi. Axborotlar nihoyatda xilmaxil bo'lib, inson har kuni o'z hayotida qabul qiladigan axborotlar miqdori turlicha bo'lib, xotirada saqlanib

qolish jihatidan birbiridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha, axborotni xotirada uzoq saqlanib qolishi uchun, u go'yoki miyangizda filtrdan o'tishi, saralanishi, go'yoki xotira qurilmasiga o'tkazilishi kerak ekan. Axborot saralanib, oxiroqibat u yoki bu tomoni bilan ajralib turadiganlarigina xotiraga o'tar ekan.

Uzoq muddat xotirada qoladigan axborotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Nihoyatda qiziqarliligi, jo'shqinligi va boshqa shu kabi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi axborotlar;
- Tasavvur, his tuyg'u va shu kabi bir birini eslatadigan bog'lanishdagi axborotlar;
- Inson tomonidan tushunib, mohiyatiga etilgan axborotlar;
- Faollik bilan qabul qilingan o'rganilgan, masalan, takrorlanib turadigan axborotlar .

Bilimni o'zlashtirish bilan bir qatorda uni yodda saqlash, undan foydalanish, takrorlab turish muhim ahamiyatga ega. Olingan bilimdan foydalanilmasa, takrorlab turilmasa xotiradan ko'tariladi.

Demak, talabalar eng avvalo o'quv materialini o'zlashtirishi, yodda qolish uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko'rish orqaligina emas, balki o'zi gapirishi, o'z faoliyatida sinab ko'rishi orqali etkazishi katta ahamiyatga ega ekan.

Bunga dars o'tishda turli tuman metodlarni qo'llash orqali erishish mumkin.

Umuman olganda, o'qituvchilarning dars jarayonida turli metodlarni, o'quv topshiriqlarini qo'llab, o'z talabalarida bilim olishga ishtiyoq uyg'otishlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Pedagoglarning muhim vazifasi, maqsadi aynan turli metodlar orqali talabalarni bilim, axborot olishni turli shakllariga tezda moslashishga, o'z dunyoqarashini kengaytirish uchun harakat qilishga talabalarni qiziqtirish va uni amalga oshirishdir. Ayniqsa, xozirgi paytda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish

uchun juda ko'p sohalarga, bilishning turli metodlarini qo'llash va bilim berishda moslashuvchanlik, rangbarang pedagogik usullar qo'llash talab etiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar, islohotlar ta'lim standartlarini o'zgartirishga, yangi fan, o'quv kurslarini kiritishnigina emas, balki dars o'tish metodlarini ham o'zgartirishni, talabalarni darsga qiziqib, faol qatnashishlarini ta'minlaydigan metodlarni qo'llash ehtiyojlarini keltirib chiqardi. Shuning uchun jahon pedagogikasida asosiy e'tibor talabalarda ana shu xislatlarni hosil qilishga qaratildi. Tajriba talabalarda aynan ana shu xislatlar, ko'nikmalarni hosil qilishda dars berishning interaktiv metodlarini qo'llash ijobiy natija berishini ko'rsatdi. Bu uslublar dars o'tishni dialog tarzda amalga oshirishga, ayniqsa, talabalarni darsga faol qatnashishlarini

Ta'minlashga qaratilgan. Har qanday fandan dars o'tishda turli metodlarni, ayniqsa, interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati yana shunda ifodalanadiki, birinchidan, bunday metodlarni qo'llash darsni qiziqarli o'tish va talabalarni darsga faol qatnashishlarini, ikkinchidan, ularning diqqatini o'tilayotgan darsni o'zlashtirishga qaratishlarini ta'minlaydi. Dars o'tishda qo'llaniladigan metodlarni shartli ravishda: an'anaviy dars o'tish uslublari hamda talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv metodlarga ajratish mumkin. *An'anaviy dars o'tishda darsning asosiy maqsadi ko'proq tushuntirishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi bilim beruvchi, o'quvchitalaba bilim oluvchi rolini bajaradi. Ularni o'rganilayotgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini nazorat qilish jarayonida bildirgan fikrlariga qarab aniqlanadi.*

Pedagoglar, pedagogolimlar dars jarayonida o'quvchi, talabalar o'rtasida hamda ular bilan o'qituvchi orasida yuqori darajada hamkorlik o'rnatilsa, uni interaktiv hisoblashadi. Odatda bunday hamkorlik u yoki bu muammoni echish yo'llarini fikrlashib topishda, qabul qilingan qarorni qay darajada qo'llasa bo'lishini muhokama qilishda o'rnatiladi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki, muhokama jarayoni uni javoblaridan ham muhimroq. Ta'lim interaktiv metodlarining maqsadi bilim berish emas, balki o'quvchi, talabalarda mustaqil

ravishda o'qish, izlanish, savollarga javob topish, qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Dars o'tishning talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv metodlari ayrim adabiyotlarda noan'anaviy dars o'tish metodlari deb ham ta'riflanadi. Bu metodlardan avvallari ham foydalanilgan, lekin kamroq e'tibor berilgan. Hozirgi paytda butun dunyoda faol interaktiv metodlarni qo'llashni dars o'tishning samarali metodi sifatida tan olinib, keng qo'llanilmoqda.

Interaktiv metodika o'zaro hamkorlikning nihoyatda ko'p usul va turlarini qamrab oladi. Lekin metodik usul qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'quvchi talabalarning tajribalari asosiy ta'lim manbai hisoblanadi. Hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan metodlarning asosiy xususiyati shundaki, unda o'quvchi, talaba o'zi uchun nimanidir kashf qiladi. Interaktiv metodlar «o'qishga va uqishga» o'rgatadi. U o'quvchitalabalarning nihoyatda katta intellektual potentsialidan foydalanish imkonini beradi, ularni o'quv jarayonida faol qatnashishlarini ta'minlaydi. O'quv jarayonida nafaqat hamkorlik, balki musobaqa, bellashuv elementlarini ham qo'llash imkonini beradi. Interaktiv metodlar talabalarni o'z fikrini ifodalashi uchun keng imkoniyat yaratib beribgina qolmay, o'rtoqlarining fikri, asoslari, dalillarini tinglab, o'z fikridan qaytishi yoki fikrini tamomila o'zgartirishi mumkin. Interaktiv metodlar boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashga, uni sabrtoqat bilan eshitishga ham o'rgatadi. Auditoriyada hamkorlik muhitini yaratishning real imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi yaxshi dars berishning tayyor retseptiga emas, balki interaktiv metodlarga asoslangan ta'lim texnologiyasiga ega bo'lishi kerak. U ijodiy hamkorlikda ishlashga va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish uchun tayyor turishga o'rgatadi.

Ta'limning interaktiv metodlari pedagoglarda:

- darsda o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi;
- o'quv materialini puxta o'zlashtirish imkonini beradi;
- o'quvchi, talabaning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi;

- barcha o'quvchi, talabalarni o'quv jarayoniga tortish, faolligini oshirish uchun sharoit yaratadi;

- guruhda ko'ngildagidek ijobiy psixologik iqlim, muhit yaratadi.

Dars o'tish metodlari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

To'g'ridan to'g'ri bayon qilish uslubi. Bu model (uslub)da yangi tushunchalar, navbatma navbat, astasekinlik bilan, mantiqiy izchillikda berib boriladi. Bu uslub ko'proq ma'ruza o'qiganda qo'llaniladi.

Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash. Bu uslubda juftlik yoki kichik guruh bilan birgalikda qo'yilgan u yoki bu masalani, ma'lum belgilangan vaqt ichida o'zaro fikr almashish, muloqot qilish orqali echish ko'zda tutiladi.

Intervyu – bir yoki bir necha kishilardan axborot olish uchun aniq maqsadga qaratilgan so'rov (savoljavob) o'tkaziladi.

Darsni aniq yo'naltirilgan (mo'ljallangan) savollar asosida olib borish. Bu uslubda mavzu bo'yicha aniq yo'naltirilgan savollar bilan mavzu muhokama qilinadi. O'qituvchi savol javob, suhbatni boshqarib turadi.

Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar. Bu uslubda talabalar qatnashadi. Modellashtirishda abstrakt uslublardan foydalanib, real voqelikka iloji boricha yaqinlashtiriladi. Bu uslub oson tushunadigan talabalarga qo'l keladi. Modellashtiruvchi o'yinda talabalar o'zlari belgilangan rollarni bajaradilar. O'z xatti-harakatlari orqali zarur malaka va ko'nikmalarni egallashadi.

Referat – baholash nuqtai nazaridan neytral pozitsiyada turgan holda mavzu bo'yicha og'zaki axborot bo'lib, u aniq ob'ektiv, struktura, kitob yoki risolaning mazmunini qisqacha bayon qilish yoki biron mavzu, asar bo'yicha qisqacha doklad tarzida tayyorlanishi mumkin. **Doklad yoki qisqacha doklad** mavzu yoki muammoni tartibga solingan holda tanishtirish yoki baholash tarzida bayon qilinadi.

Masala yoki mashq echish. O'tilganlarni nazariy jihatdan yodga tushirib, berilgan topshiriqni bajarish. Nazariy bilimni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratiladi.

Tadqiqot metodi. Bu metodda biron muammo yoki gipoteza qo'yilib, guruh birgalikda tadqiqot o'tkazadi, mantiqiy xulosa chiqariladi, uni ilgari surilgan gipoteza bilan taqqoslaydi.

«**Aqliy shturm**» metodi muayyan muammo echish uchun talabalar o'rtasiga qo'yiladi. Unda har bir guruh yoki alohida talabalar tomonidan fikr va mulohazalar bildiriladi. Ular solishtiriladi va xulosa chiqariladi.

Konkurs(tanlov)lar o'tkazish. Ma'lum bir mavzu yoki muammo bo'yicha talabalar olgan bilimlarini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi.

Dars o'tishda boshqa qator metodlar ham mavjud bo'lib, ularni o'qituvchi mavzuning mazmuni, guruhning tayyorgarligiga qarab, qo'llashi mumkin.

Dars berish jarayonida turli metodlarni qo'llashni hozirgi paytda keng targ'ib qilinayotganiga qaramay hali kutilgan natijaga erishilgani yo'q. Buning qator sabablari quyidagicha:

- qo'llash bo'yicha metodik qo'llanmalarning yo'qligi;
- interaktiv metodlarni qo'llash bo'yicha o'tkaziladigan darslarga tayyorgarlikning ko'p vaqt va mablag' talab qilishi;
- interaktiv metodlarni keng qo'llash uchun barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida moddiy bazaning etarli emasligi;
- interaktiv metodlarni keng qo'llab, dars o'tish o'qituvchidan chuqur bilim va mahorat talab qilishi;
- barcha o'qituvchilarni bunga birday jalb qilishning qiyinligi va hokazolar.

Bundan tashqari, o'quv jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklar va kamchiliklar ham turli metodlarni qo'llab, dars o'tishga to'sqinlik qiladi.

O'qish jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklar:

- a) butun o'quv jarayonini tashkil qilishga tegishli;
- b) o'quv materialining ma'lum bir qismiga tegishli bo'lishi mumkin.

Kamchiliklar esa:

- 1) umumiy xarakterga ega bo'lgan;
- 2) o'quv jarayonidagi individual to'siqlar;
- 3) guruh tufayli kelib chiqqan qiyinchilik;
- 4) dars jarayonini tashkil qilishdagi qiyinchiliklar tufayli kelib chiqqan to'siqlar.

Darsni tashkil qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar shovqin, dars paytidagi tanaffus, darsni boshqalar tomonidan buzilishi tufayli kelib chiqishi mumkin.

Dars jarayonida qo'llanishi kerak bo'lgan texnik vositalar, darslik, zarur o'quv qurollari etishmasligi kabilar ham qiyinchiliklar tug'diradi.

O'qituvchining O'Z fanini puxta bilmasligi, fanga doir yangiliklardan xabardor emasligi, o'zini birorbir aybi bor yoki biror narsa etishmayotganday tutishi ham dars o'tishda qiyinchilik tug'diradi. Talabalarning darsda o'zini tuta bilmasligi, o'zaro raqobatlashuvi, ham dars o'tkazishga to'siq bo'lishi mumkin.

Didaktik xarakterdagi kamchiliklar:

- a. o'qituvchining hukmronlik rolini o'ynashi;
- b. o'qituvchining o'zini tuta bilmasligi;
- c. o'qituvchida sabrtoqatning etishmasligi;
- d. xushmuomalalik, xushfe'llikning etishmasligi;
- e. yordam berishga tayyor turishdagi kamchiligi;
- f. xayrixoh emasligi, talabalarni ko'rko'rona so'zsiz bo'ysunishga majbur qilishi kabilardan iborat.

Dars o'tishda yuz beradigan turli kamchiliklar natijasida talabalarning o'qishdan ko'ngli soviydi. Bu individual, ruhiy va intellektual qobiliyati darajasiga nisbatan o'zlashtirish darajasini tushib ketishida ifodalanadi.

O'quv jarayonida to'sqinliklar yuz berganmi yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin:

- o'zlashtirish ko'rsatkichining pasayishi;
- darsga qatnashish darajasining pasayishi;
- materialni o'zlashtirish uchun ajratilgan vaqtda ulgurmaslik.

Demak, dars jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi iloji boricha ana shu kamchiliklar yuz bermasligining oldini olishga harakat qilishi kerak.

Darsda pedagog interaktiv metodlarni qo'llashi uchun shaxsiy tajriba talab qilinadi.

Interaktiv metod va ularni qo'llash haqida ko'plab o'quv, uslubiy adabiyotlarni o'qish mumkin. Lekin ularni qo'llash malakasiga esa bevosita ana shu jarayonda o'zi qatnashibgina ega bo'lishi, ko'nikma hosil qilishi mumkin.

Dars o'tish metodlarini tanlash mezonlari

O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, albatta, uni qanday metod asosida o'tkazish haqida bosh qotiradi. Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo'llab o'tkazaversa bo'ladi, lekin amalda buning iloji yo'q. Bunga qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar, mavjud sharoit salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiya, pedagogika bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlarda dars o'tish metodini tanlashga ta'sir qiluvchi juda ko'p omillar ko'rsatiladi. «Metodika prepodavaniya ekonomicheskix distsiplin» kitobi mualliflarining fikricha ta'lim metodini tanlash yoki aniqlashning oltita umumiy shartsharoitlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular;

1. O'qitishning qonuniyatlari va tamoyillari;
2. Fanning mazmuni va o'rganish metodi, jumladan, uning predmeti va mavzulari;
3. O'qitishning maqsadi va vazifalari;
4. Talabalarning o'quv imkoniyatlari (yoshi, tayyorgarlik darajasi, guruhning xususiyatlari);
5. Tashqi sharoitlar (geografik, ishlab chiqarish, atrofmuhit);
6. O'qituvchilarning imkoniyatlari.

Turlituman omillarning dars o'tish metodini tanlashdagi o'rinlarini ierarxik tarzda joylashtiradigan bo'lsak, ko'pchilik psixologlar va pedagog olimlarning fikricha, birinchi o'rinda ta'limning maqsadi turadi. Aynan dars o'tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz

zarur bo'lgan natija belgilanadi. Ikkinchi o'rinda ta'limning motivatsiya darajasi turadi.

Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruh ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u. Insonni o'qishga o'rganishga ham ana shu tuyg'u undaydi. O'qituvchi dars o'tish metodini tanlar ekan, albatta, o'quvchi, talabalardagi motivatsiya darajasiga e'tibor berish kerak. Dars o'tish metodini tanlaganda ta'lim qonuniyatlari va realizatsiya qilishni nazardan qochirmaslik kerak (qonuniyat ob'ektiv amal qiluvchi hodisalarning muhim aloqadorligi, bog'lanishlari va ularning qonunlari, qonuniy asosda tabiiy ravishda o'zo'zidan kelib chiquvchi muqarrar ish, hodisa va boshqa shu kabilar).

Har bir fanni o'rganishda dars o'tish metodlari ta'lim qonuniyatlaridan, didaktik printsiplardan kelib chiqqan holda tanlanadi. XVIII asrlarda mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o'qitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham etakchi asosi sifatida qaraganlar.

Ijtimoiy pedagogik qonuniyatlar quyidagilarda ifodalanadi:

- ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotini aks ettiradi;
- uzviy bog'langan;
- taqozo etadi va ikki tomonlama qonuniy aloqani tashkil etadi;
- jalb etish orqali amalga oshiriladi;
- o'qitish maqsadi va o'quv yurti ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari

o'rtasidagi qonuniy bog'liqlik;

- o'quv jarayoni o'quvchi talaba maqsadining o'qituvchi maqsadiga muvofiq bo'lishi tufayli amalga oshadi. Bunda o'qituvchi faoliyati o'zlashtirishi lozim bo'lgan mazmuniga mos bo'lishi shart;

- ta'lim mazmunini o'zlashtirish sur'ati va puxtaligi, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv faoliyatiga, o'quvchi, talabalarni bilishga bo'lgan qiziqishini ta'minlash;

- ularning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv jarayoniga qay darajada jalb qilinishi;
- o'zlashtirilgan o'quv materiali mazmunining puxtaligini ta'minlashda mavzuni to'liq yoki qisman takrorlash.

O'quv jarayonida talabalar bilim qonuniyatlaridan qanday foydalanishlari didaktik printsiplarga amal qilish bilan bog'liqdir.

Albatta, dars o'tish metodlarini tanlayotganimizda fanni o'rganishga qo'yilgan talablar va fanning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bir fanni o'zlashtirishda yaxshi natija bergan metod boshqa fanga talabalarni chuqur o'zlashtirishlari uchun yaxshi yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun ham dars o'tish metodlarini tanlaganda, albatta, fanning hususiyatlariga alohida diqqat qaratish lozim. Fanni o'rganishda **o'quv materialining murakkabligi va miqdori** ham muhim rol o'ynaydi. Demak, dars o'tish metodini tanlashda fanning bu jihatlarini ham hisobga olish lozim. Masalan, oliy o'quv yurtlarida iqtisodiyot nazariyasi, akademik litsey, kasb hunar kollejlari iqtisodiyot asoslari fanini o'rganishda abstrakt tafakkur nihoyatda katta rol o'ynaydi. Buxgalteriya hisobi, tahlil, soliq va boshqa shu kabi fanlarda amaliy metodlar fanni o'rganishga katta yordam beradi. Demak, metodlarni muvofiq ravishda tanlash lozim.

Dars o'tishda qanday metodni tanlash **o'rganilayotgan fanga, uning xususiyatlariga, o'rganiladigan mavzularga** bog'liq. Masalan, statistika fanida iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash asosiy rol o'ynasa, buxgalteriya hisobi fanida esa hujjatlashtirishga asosiy diqqat qaratiladi. Bir mavzuning mazmuni munozarada chuqur o'zlashtirilsa, ikkinchisidiki, masalamashq echishda ko'proq tushunarli bo'ladi. Dars jaryonini qanday metod asosida tashkil etishda **o'quvchi talabalarning o'rtacha bilim darajasi** ham muhim rol o'ynaydi.

Guruhda talabalarning bilim darajasi yuqori bo'lsa, muvofiq ravishda ijodiy izlanishga undaydigan metodlarni qo'llash zarur. Bu ularni yanada ko'proq o'qishga, izlanishga olib keladi. Bilim darajasi past bo'lsa, ularga

fanning mazmunini o'zlashtirishga yordam beruvchi metodlarni tanlagan ma'qul.

Dars o'tish qiyin bo'lgan guruh talabalarning bilim darajasi birbiridan keskin farq qiladigan guruhdir. Shuning uchun bunday guruhlarda bilimdonlar boshqalarga yordam berishiga erishishga, fanni o'zlashtirishga ko'maklashadigan metodlarni ko'proq tanlashga to'g'ri keladi.

O'qituvchi dars metodini tanlar ekan talabalarning faolligi, qiziqishini ham hisobga olishi zarur. Talabalarning qiziqishi past guruhlarda ularning faolligini oshiruvchi, fanni o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi metodlarni qo'llash zarur. Bunda modellashtiruvchi o'yin turli qiziqarli mashqlar, konkurslar o'tkazish, talabalarga individual topshiriqlar berish, aytaylik, biron iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarishidan qanday xulosa chiqishi borasidagi fikrlashlar bilan kechadi.

Talabalarning faolligi yuqori guruhlarda ularni o'z ustida mustaqil ishlashlarini ta'minlovchi, erishgan darajada qotib qolmay, yanada ko'proq bilishga undovchi metodlarni qo'llash muhim.

Dars o'tish metodini tanlashda ta'lim berish muddatini ham hisobga olish zarur. Ma'lumki, vaqt inson uchun eng cheklangan resurs. Shuning uchun talabalarni doimo vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish zarur. Fanni o'rganishga umumiy qancha vaqt berilgani, shulardan mavzularga qancha vaqt ajratilganiga qarab, dars o'tish zarur. Shubhasiz, dars o'tish metodlarini tanlashda moddiytexnik baza, o'qitishning tashkiliy shart sharoitlari ham muhim o'rin tutadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, maqsadga erishish uchun o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy savollarga ko'proq vaqt ajratishi, shunga muvofiq dars o'tish metodini tanlash va uni o'tkazishni rejalashtirishi zarur.

Dars o'tish metodini tanlashga ta'sir etadigan yana bir omil darsning shakli va tarkibidir. Albatta, nazariy darsda tanlangan metodni amaliy, darsda ham qo'llash kutilgan natijani bermaydi. O'qitish metodini tanlashda guruhdagi talabalar soni ham katta rol o'ynaydi. Kichik guruhlarda muvaffaqiyat bilan

qo'llanilgan metodlar katta guruhlarda kutilgan natijani bermasligi mumkin, yoki umuman qo'llash qiyin bo'ladi. Dars jarayonida qo'llaniladigan metodni tanlashda o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida o'quv jarayonida shakllanadigan munosabatlarda o'zaro hamkorlikka diqqat qaratilsa, boshqalarida avtoritarlik ustun. Dars o'tish metodini tanlashda eng muhim omil bu o'qituvchining darsga tayyorgarligi darajasidir. Chunki qaysi metodni qo'llash, qanday qilib dars o'tish, darsning mazmuni talabalar ongiga etkazish o'qituvchiga, uning bilimi, salohiyati, kasbiy ko'nikmasi, mahoratiga bog'liq. Yuzaki qaraganda dars o'tish metodini tanlash murakkab emas. Ularni qanday qo'llash uchun o'qituvchida tajriba bor. Ulardan birortasini tanlasa bo'ldi, deya fikr yuritamiz. Lekin ko'rib o'tganimizdek, dars jarayonini tashkil etishga ko'plab omillar ta'sir qiladi.

Bundan tashqari real jarayonga kutilmagan holatlar, sabablar ta'sir qilishi mumkinki, uni avvaldan ko'rib, hisobga olib bo'lmaydi. Dars o'tishda samarali metodlarni qo'llash deganda, mavjud turlituman metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo'yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlarni qo'llash tushuniladi. Ular har bir fan, mavzu, savol, guruh uchun turlituman bo'lishi mumkin. Dars o'tish metodlarini tanlashda yangi mavzuni, materialni o'rganilishi, uni mustahkamlash, mavzuni umumlashtirish va dars jarayoni bosqichlari ham katta rol o'ynaydi.

2.2. Mavzuni o'rganishda uning xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish

Iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq echish egallaydi. Shu bilan bir qatorda Tovar moddiy zaxiralar mavzusida dars o'tishda ham bu metod samarali hisoblanadi. Sababi:

1) masala, mashq echishni mukammal bilish, olgan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

2) masala, mashq echish orqali talabalarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

3) masala mashq fikrlashni o'rgatadi.

Shuning uchun ham masalaga faqat topshiriqni hisob kitob asosida bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish ob'ekti sifatida qaratilishi **bejiz** emas.

Masala yordamida fanni o'rganganda **aniq** raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng. Undan tashqari modellashtiruvchi o'yin, **kichik** guruhlariga bo'lish, konkurs o'tkazish va boshqa metodlar asosida dars o'tishda ham masalamashqlardan **keng** foydalanish imkoniyati katta.

Iqtisodiy fanlardagi mashqlar talabalarni mushohada qilish, huloa chiqarishga o'rgatish bilan birga kam vaqt sarflanishi, ayrim masalalarda ikkilanib turgan talabalarni to'g'ri javob topishga o'rgatadi.

Masala, mashq echish jarayonida talabalarning qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. Ulardan munozara, debatlar metodini qo'llashda ham keng foydalansa bo'ladi.

Masala mashqlar talabalar bilimini sinashda ham eng qulay metod.

Masala mashqlardan fanni o'rganish uchun tarqatma material tayyorlashda keng foydalanish mumkin. Ulardan darsda foydalanish turli interaktiv metodlarni qo'llab dars o'tishni tashkil etishda foydalanish imkoniyati nihoyatda katta.

Masala, mashqlardan foydalanib darsni tanlov o'tkazish shaklida tashkil etish mumkin. Bunda teng kuchli masalamashqlar tayyorlanib, kichik guruhlariga. juftlik yoki individual tarzda echishga qarab darsda qo'yilgan maqsad amalga oshiriladi.

Masala, mashqlarning murakkabligi jihatidan tabaqalashtirgan holda tuzilib, talabalarning salohiyatiga ko'ra beriladi. Natijada murakkab masalani echolmay hafsalasi soviydigan talabalarni ham darsga, o'rganilayotgan mavzuga diqqatini qaratish mumkin.

Xullas masala, mashqlar, bir tomondan sinalgan, qadimiy dars o'tish uslubi bo'lsa, ikkinchi tomondan, imkoniyatlari nihoyatda ko'pligi tufayli

eskirmaydigan, doimo zamonaviy, uchinchidan, universal, barcha iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan metoddir.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda bu metod, shubhasiz, nihoyatda katta ustunliklarga ega, ya'ni:

*Masalalardan foydalanish amaliyot yo'nalishiga ega bo'lgani uchun mavzuni o'rganish va talabalar bilimni nazorat qilishning samarali usuli hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarning bilimni nazorat qilishda imkoniyati katta.

*Masala mavzusi uchun har qanday vaziyatni tanlash mumkin. Masalalar talabalar bilimni butun dastur bo'yicha nazorat qilish, shu bilan birga, asosiy yoki qiyin kategoriyalar yoki mavzularni tushunishga qaratilgan bo'lishi mumkin. * Masalalarning muntazam ehib turilishi hamda uni muhokama qilish talabalarning olgan bilimni uzluksiz nazorat qilish, tushunmagan kategoriyalarni tushunib olish imkoniyatini beradi.

2.1-jadval

Masala №1.Davriy hisob.⁷

Oy davomida “Yulduz” savdo korxonasi quyidagi TMZ xarid qilindi:

sana	Miqdori, dona	Narxi,sum	Qiymati,so'm
5.01	5000	1400	7000000
18.01	3000	1550	4650000
22.01	1500	1800	2700000
jami	9500		14350000

Oy yakunida korxonada omborida 8000 dona TMZ qoldi.

Talab etiladi: Oy davomida sotilgan TMZ ni tannarxini FIFO va AVEKO usullari orqali aniqlang?

Masala №2.⁸

“Sezar” korxonasi 10.01.2011 yilda “Ofisstar”mol yetkazib beruvchi rxona bilan ofis tovarlarini sotib olish uchun №10-08 shartnoma tuzdi. Ofis tovarlari: “Oq qog'oz” -40 pachka narxi 12000 so'm, “Kalkulyator-CASIO”-10

⁷ G'ulomova F.G'. "Zamonaviy buxgalteriya hisobi:noldan balansgacha" Toshkent-2012

⁸ G'ulomova F.G'. "Zamonaviy buxgalteriya hisobi:noldan balansgacha" Toshkent-2012

dona narxi 15000 so'm. Sezar korxonasi 12.01.2011 yilda menedjer Ibragimov Asrorga ofis jihozlarini olib kelish uchun №1 sonli ishonchnoma yozib topshirdi. Menedjer Ibragimov Asorning passport seriyasi CA №1234567, Xamza tumani IIB tomonidan 15.04.1996 yilda berilgan. "Ofisstar" korxonasi 12.01.2011 yilda №3-sonli schyotfaktura bo'yicha tovarlarni xaridorga junatdi. Masala shartlari bo'yicha ishonchnoma qog'ozini va hisob-fakturani to'ldiring.

1-SON ISHONCHNOMA

Berilish sanasi _____

Kinga berildi _____

(lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Pasport seriya: _____

Kim tomonidan berildi _____

Berilish sanasi _____

Olishga _____

(moddiy boyliklar etkazuvchisining nomi)

_____ (hujjat nomi, raqami va sanasi)

Orqa tomoni

t/r	Moddiy boyliklar nomi	O'lchov birligi	Miqdori (so'z bilan)
1	2	3	4
2			
3			

Olinadigan moddiy qiymatliklar ro'yxati

Ishonchnoma olgan shaxs _____

M.O'.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari (tashkilot) _____

Bosh buxgalter _____

Schyot-faktura №

"__" _____ 20 yil

№ _____ "___" _____ 20 yidagi shartnoma bo'yicha

Mol yetkazib beruvchi:	Xaridor:
Manzil:	Manzil:
Telefon:	Telefon:
X-k raqami:	X-k raqami:
Bank:	Bank:
Shahar:	Shahar:

Bank kodi:	Bank kodi:
INN:	INN:
OKONX:	OKONX:

Tovarlarni (ish xizmatlar) nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Qiymati	Aksis solig'i		QQS		Qiymati qqs bilan
					stavka	summa	Stavka	summa	
Jami									
Jami to'landigan summa:									

Rahbar _____

Qabul qildi

Bosh buxgalter _____

(xaridor tomonidan ishonchli shaxs

imzosi)

M.O'.

№ ____ sonli ishonch bo'yicha

Tovarni topshirdi _____

“ ____ ” _____ 20__ yil.

(mol yetkazib beruvchi tomonidan:

moddiy javobgar shaxs imzosi)

№ ____ SON KIRIM ORDERI

“ ____ ” _____ 20__ yil

_____ (mol yetkazib beruvchining nomi, shartnoma № va sanasi)

_____ (korxonaning nomi)

Ombor:

TMZ nomi	O'lchov birligi	Miqdori		Narxi	Qiymati QQS siz	QQS	Qiymati QQS bilan
		Hujjatda	Qabul qilindi				
jami							

Qabul qildi _____

Topshirdi _____

T-sxema Bu metod ikki xil malumot: axborot, turli qarashlarni taqqoslashning universal grafik tarzda ifodalash bo'lib, o'quvchitalabalarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha mavjud qarashlarni taqqoslash, ular asosida

qaror qabul qilishga o'rgatadi. Ayniqsa, farqlanuvchi qarama qarshi, xilmaxil qarashlarni, malumot axborotlarni malum bir mezonlar bo'yicha ifodalash uchun nihoyatda qulay.

Agar ana shu mezonlarni talabalarning o'zi ishlab chiqsa, dars yanada samarali bo'ladi. Odatda Tsxema birbiriga qaramaqarshi (antonim) fikrlar, qarashlar, malumotlar, axborotlarni ifodalaydi. Ularni ha/yo'q, tarafdor/qarshi, yuqori/past, minimal/maksimal kabilar orqali ko'rsatish mumkin. Bunda qo'yilayotgan maqsad o'rganilayotgan mavzu, savol yoki qarashlarni mazmuniga ko'ra, o'qituvchi taqqoslash variantlarini ishlab chiqadi. Tsxema uncha katta bo'lmagan maydonda katta manoga ega bo'lgan materialni ifodalash imkonini beradi. U ayniqsa, modul yoki ma'lum bir qarashlar mazmunini umumlashtirishda foydalanishda juda qulay. Tsxemani mustaqil tizimi bo'yicha berilgan topshiriqlar talabalarni iqtisodiy fikrlashini rivojlantirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Tsxemaga misol sifatida yuqorida keltirilgan dars o'tish metodlarining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, «Aqliy hujum metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari»ni ko'rsatish mumkin.

Metodning afzalliklari	Metodning kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> • talabalarga bilim, tajriba, kuzatuvlar nuqtai nazaridan muammo echimiga turlicha yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi; • talabalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatadi va hokozolar 	1) metodni qo'llash ko'p vaqt talab qiladi; 2) katta guruhlarda qo'llash qiyin; va hokozalar

TMZ ga berilgan tariflar⁹

<i>Mualliflar</i>	<i>Tariflar</i>	<i>Izoh</i>
I. Ochilov J. Qurbonboev (Moliyaviy hisob)	Ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Amalda ular TMZlar deb ataladi. Asosiy vositalardan farq qilib, TMZlar bir ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannariga o'tkazadi. Materiallarning xar bir turi bo'yicha normativ miqdori korxonada tomonidan mustaqil belgilanadi.	
G'ulomova F.G' (Zamonaviy buxgalteriya hisobi:noldan balansgacha)	Tovar-moddiy zaxiralar -ishlab chiqarish jarayonida bir marotaba qatnashadigan va o'z qiymatini bir ishlab chiqarish sikli davomida to'liq ravishda yangidan yaratilayotgan mahsulotga o'tkazadigan aktivlardir.	
Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS)	Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar;	

Kontseptual jadval metodi. Bu metod klaster, semantik xususiyatlar tahlili kabi ko'rgazmalilik orqali fikr yuritish jarayonini ifodalaydi. Fikr yuritishni qiyoslash, taqqoslash, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Kontseptual jadvalda vertikal bo'yicha, ya'ni ustunlarda taqqoslanadigan tushuncha, axborot, ma'lumotlar beriladi. Gorizontalar, ya'ni qatorda taqqoslash amalga oshirilishi kerak bo'lganlarni turli xususiyatlari, xarakteristikasi beriladi.. Yoki jadvalni boshqacharoq tarzda tuzsa ham bo'ladi. Asosiysi, taqqoslanayotgan fikrning qaysi jihati taqqoslanayotgani aniq ko'rinib turishi kerak. Kontseptual jadval yoki xarita nihoyatda katta tahliliy axborotni

⁹ Muallif ishlanmasi.

zich, ixcham ravishda joylashtirish imkonini beradi. Bunday jadvallar, ayniqsa, darsda:

- 1) metodik jihatdan ko'rgazmalilikni ta'minlaydi;
- 2) kontseptual jadval tizimi bo'yicha berilgan topshiriq orqali o'tilayotgan mavzu yoki savolning mazmunini o'rganish amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham bu metoddan iqtisodiy fanlarni o'rganishda keng foydalanish mumkin.

III Bob. “TOVAR MODDIY ZAHIRALAR HISOBI” MAVZUSIDA DARS O’TISHDA MAVZUNING XUSUSIYATLARIGA MOS METODLARNI QO’LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Tovar moddiy zahiralari hisobi mavzusida dars o’qitishda qo’llaniladigan topshiriqlar ishlab chiqish va qo’llashni takomillashtirish.

O’rganiladigan mavzu buxgalteriya hisobining muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Shuning uchun talabalarga mavzuni tushuntirish uchun har hil metodlarni qo’llash talab etiladi. Talabalarga mavzuni tushuntirish uchun mavzu bo’yicha ko’proq masala-mashq ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tovar moddiy zahiralari hisobi mavzusida turli xil masala-mashqlar ishlab chiqish mumkin. Bu orqali talabalarning o’zlari ustida ishlashlariga majbur qiladi va mavzuni chuqurroq o’rganishga undaydi. Quyida bir qancha masala mashqlar ko’rib chiqamiz.

Masala №1. Uzluksiz hisob.

May oyining boshiga “Kichkintoy” korxonasi materiallar qoldig’i 900 dona 100 so’mdan. May oyi davomida korxonada materiallar bo’yicha quyidagi operatsiyalar bo’lib o’tdi:

- 01.05. Sotib olindi-2000 dona 100 so’mdan
- 07.05. Ishlab chiqarishga berildi-1400 dona
- 10.05. Sotib olindi-800 dona 115 so’mdan
- 18.05. Ishlab chiqarishga berildi-1240 dona
- 22.05. Ishlab chiqarishga berildi-480 dona
- 25.05. Sotib olindi-1000 dona 110 so’mdan
- 30.05. Mamuriyatga berildi-760 dona.

Talab etiladi: oy davomida sotib olingan va ishlatishga berib yuborilgan materiallar tannarxini uzluksiz hisob bo’yicha hisoblang. Materiallar tannarxini hisoblashda FIFO va AVECO usullaridan foydalaning.

Materiallarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar korrespondensiyasi.

T/R	Xo'jalik operasiasining mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
		Debet	Kredit
1	Yetkazib beruvchidan materiallarni qabul qilish		
2	Asosiy vositalarni yo'q qilish natijasida kelib tushgan materiallar qaytimi		
3	Ta'sischi lardan ularning ulushlariga hisobiga kelib tushgan turli materiallarni kirim qilish		
4	Materiallarni boshga shaxslardan tekin olish		
5	Materiallarni kirim qilgandan so'ng nuqsonlarni aniqlaganda yetkazib beruvchiga da'vo qilish		
6	Yaroqsiz mahsulotlardan qolgan materiallarni kirim qilish		
7	O'z ishlab chiqarish mahsulotini kirim qilish		
8	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklariga materiallar jo'natish		
9	Ma'muriy ehtiyojlarga material junatish		
10	Yaroqsiz mahsulotni tuzatishga material sarflash		
11	Mahsulotni sotish uchun idish sarflar		
12	Chetga chiqib ketgan materiallar qiymatini hisoblab chiqarish		
13	Inventarlash paytida kamomadlarni aniqlash.		

Korxonada sodir bo'lgan operatsiyalar uchun provodkalar bering.

Tovar moddiy zaxiralarini xarid qilishda va sotishda Qo'shilgan qiymat solig'ining hisobi. Materiallarni xarid qiladigan korxonalar ular qiymatini yetkazib beruvchilarga QQS bilan birga to'laydilar. Yetkazib beruvchi olingan summadan ushbu soliqlik byudjetga to'laydi. Demak, materiallarni qabul qilish paytida ularning qiymatini 1010-“Xom ashyo va materiallar” hisobvarag'i debetida, QQS esa 4410-“Byudjetga soliqlar va yeg'imlar bo'yicha bunak to'lovlari” hisobvarag'i debetida yoziladi.

Misol. Korxonalar 200 ming so'mga materiallar xarid qildi, QQS schyot-fakturada ajratilib alohida satr bilan ko'rsatilgan – 40 ming so'm. Jami 240 ming so'm. Ushbu summalarga buxgalteriya provodkalarini bering.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar unga keraksiz bo'lgan moddiy boyliklarni sotish yoki berish huquqiga egadir. Bunday materiallarni sotish yoki bepul berish hisobi 9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'ida yuritiladi. Materiallar chetga sotilganda qanday buxgalteriya provodkalari beriladi:

- A) Haqiqiy xarid narxi bo'yicha materiallar qiymatiga:
- B) Sotish shartnomaviy narxiga:
- C) QQS summasiga:

M. Korxonalar nolikvid materiallarni 35.1 ming so'mga sotdi. Ularning haqiqiy qiymati 20 ming so'm.

Talab etiladi QQS ni toping va quyidagi muomalalarga buxgalteriya provodkalarini bering:

- A) Haqiqiy xarid narxi bo'yicha materiallar qiymatiga:
- B) Sotish shartnomaviy narxiga:
- C) QQS summasiga:
- D) Nolikvid materiallarni sotishdan foyda summasiga:

M. Mol yetkazib beruvchilardan 300 ming so'mlik ehtiyot qismlar olingan. Ehtiyot qismlarni tashib bergani uchun transport tashkilotiga 50 ming so'm hisoblangan, ehtiyot qismlarni xarid qilish bo'yicha xodimning xizmat

safari xarajatlari 15 ming so'mni tashkil etgan. Ushbu operatsiyalar uchun buxgalteriya provodkalarini bering:

A) mol yetkazib beruvchilardan olingan ehtiyot qismlar qiymatiga:

B) ehtiyot qismlarni tashib bergani uchun avtotransport korxonasi xizmati summasiga:

C) xizmat safari xarajatlari summasiga:

D) ehtiyot qismlarni haqiqiy tannarxi bo'yicha kirim qilinish summasiga:

Misol. "Navro'z" MCHJ da yil davomida quyidagi TMQ sotib olindi.

3.2-jadval

Sotib olish sanasi	Birliklar dona	miqdori	Narxi,so'm	Umumiy qiymati,so'm
23 yanvar		1000	600	600000
15 aprel		1700	800	1360000
12 oktabr		1500	900	1350000
Jami:		4200		3310000

Yil oxirida omborda 1400 dona Tovar qoldi. Sotishdan olingan daromad - 3250 ming so'm. TMZ larni baholash usullaridan foydalanib sotilgan mahsulot tannarxi hamda yil oxirida zaxiralarga taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlas kerak.

Tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi.

Sotilgan tovarlarning miqdorini aniqlaymiz:

$4200 - 1400 = 2800$ dona. Bulardan

Birinchi partiyadan 600 donasi, ikkinchi partiyadan 1500 donasi, uchinchi partiyadan 700 donasi sotilganligi haqida ma'lumot bor.

Tovarlar xarajati:

$(600 * 600) + (1500 * 800) + (700 * 900) = 2190$ so'm

FIFO usuli

Sotilgan tovarlarning miqdorini aniqlaymiz:

$4200-1400=2800$ dona.

Tovarlar xarajati:

$(1000*600)+(1700*800)+(100*900)= 2050$

Tovarlar sarf-xarajatini boshqa yo'l bilan yani tovarlar qoldig'idan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin: $1400*900=1260$ ming so'm. Sotilga tovarlar tannarxi $3310-1260 =2050$ ming so'm.

Sotishdan olingan daromad-3250 ming so'm

Sotishga tayyor mahsulot tannarxi-3310 ming so'm

Hisobot davri oxirida TMQ-1260 ming so'm

Sotilgan mahsulot tannarxi-2050 ming so'm

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda-1200 ming so'm

O'rtacha tortilgan qiymat (AVECO) usuli

Tovar birligining o'rtacha qiymati:

$(3310/4200)=0.788$ so'm.

Tovarlar xarajati:

$2800*0.788=2207$ ming so'm.

Sotishdan olingan daromad-3250 ming so'm

Sotishga tayyor mahsulot tannarxi-3310 ming so'm

Hisobot davri oxirida TMQ $(1400*0.788)-1103$ ming so'm

Sotilgan mahsulot tannarxi-2207 ming so'm

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda-1043 ming so'm

Aniq bir korxonada yuzaga kelgan vaziyatga qarab o'rtacha narx davrlar bo'yicha yoki har bir materiallarning qo'shimcha yetkazib berilishicha hisoblanishi mumkin.

3.2. O'quvchi, talabalar bilimini sinash va baholash mavzuni puxta

o'zlashtirish omili sifatida.

Talabalar bilimini sinash va baholashda qanday usulni tanlash, o'tilayotgan fan, qo'yilgan maqsad, o'qituvchining tanlovi kabilarga bog'liq.

Talabalar bilimini baholashda test muhim o'rin tutadi. Testlar talabalar bilimini baholash, bilim olishga ko'maklashishdan tashqari masala echish, referat yozish yoki savolga og'zaki yoki yozma javob yozish kabilardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi. Testlar talabalar bilimini nazorat qilishning ob'ektiv usuli hisoblanadi, sababi unda o'qituvchi bilan talaba o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar hech qanday rol o'ynamaydi va talaba bilimini baholashga ta'sir etmaydi.

Testlarni yakuniy nazoratdan tashqari mavzuni boshlashdan avval ham, joriy va oraliq nazoratda ham qo'llash mumkin.

Mavzu bo'yicha dars o'tishdan avval qo'llanilgan pretestlar talabalar diqqatini shu testdagi asosiy xatolarga, o'rganilayotgan kategoriyalarga qaratish imkonini beradi. Pretestda unga tanish bo'lmagan g'oya, tushuncha, gohida alohida so'z bilan to'qnash kelib, ularni mustaqil o'rganishga harakat qiladi. Ular talabani mustaqil ishlashga undaydi, yo'llanma beradi. Oraliq testlar darsni o'zlashtirish jarayoni qanday kechayotganini nazorat qilish imkonini beradi. Oraliq testlarning natijasini muhokama qilish jarayonida fandagi asosiy tushunchalarni samarali takrorlash va xotirada saqlash imkoni vujudga keladi. Testlar talabalar bilimini butun dastur bo'yicha, shuningdek, tor tanlash doirasida yoki alohida ahamiyatga ega, yoxud an'anaviy o'zlashtirish qiyin tushuncha, mavzular bo'yicha nazorat qilish, baholash imkonini beradi.

Testlar talabalar bilimini tez tekshirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, oraliq testlar o'tkazish uchun qulay, chunki test javoblariga ko'ra o'qituvchi dastur bo'yicha o'z ishini, dars o'tiladigan savollarni ko'rib chiqadi, kelgusida dars o'tishda qaysi savollarga ahamiyat berishni mo'ljallaydi.

Testlar talabalar bilimini sinash va baholashda qator afzalliklarga ega bo'lish bilan birgalikda, kamchiliklari ham bor. Test savollarini tuzish ko'p mehnat, vaqt talab qiladi. Shuning uchun keyingi paytlarda o'qituvchilar ko'proq tayyor test savollaridan foydalanishmoqda.

Testning yana bir kamchiligi, tavakkal qilib javob topishning mumkinligidir.

Iqtisodiy fanlar, ma'lumki, iqtisodiy mantiqiy fikrlashga o'rgatibgina qolmay, o'z fikrini atrofda qilarga tushuntirish, o'rtoqlashish, nutq so'zlash, ilmiy munozaralar olib borish, boshqa kishilarni fikrini tanqidiy nuqtai nazardan baholashga ham o'rgatishi kerak. Testlar esa bunday imkoniyatga ega emas.

Talabalar bilimni sinash va nazorat qilishda masala, mashqlardan ham keng foydalanish mumkin. Masala – mashqlar talabaning bilimni keng ko'lamda tekshirish, olgan nazariy bilimni real hayotda qo'llay bilish imkonini ochib beradi. O'rganilayotgan savolni mohiyatini talaba tushungani yoki tushunmaganini aniqlaydi. Bu usulning ham o'ziga xos kamchiliklari bor. Birinchidan, talabani hisoblash bilan birga keng mushohada yuritishga yo'naltiruvchi masalamashqlar tuzish oson emas. Ikkinchidan, talabalar hisobkitobga haddan ziyod berilib ketib, nazariy jihatdan tahlil qilishga kam e'tibor qaratishadi. Uchinchidan, masalamashqlar tor doiradagi savollarni qamrab oladi.

Talabalar bilimni sinash va baholashning keyingi paytda keng qo'llanilayotgan usullaridan biri yozma ish yozishdir. Uning afzalligi shundaki, yozma ish uchun savollar oson tuziladi. Talabalarni o'z fikrlarini ijodiy ravishda bayon qilishlari uchun katta imkoniyat mavjud. Undan tashqari tavakkal qilib, javob berib bo'lmaydi. Talabalar bilimni sinash va baholashda yozma ish yoki esse yozishdan foydalanish mumkin.

Yozma ishning kamchiligi uni o'qib chiqish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Baholash qiyin. Ko'p savollarni qamrab olmaydi. U esse tarzida yoki tayanch ibora, atamalar asosida yozma topshiriq tarzida bo'lishi mumkin.

Esse yoki yozma topshiriq berilar ekan, har bir talabaning ishini ob'ektiv baholash uchun baholashning mezonlarini ishlab chiqish kerak. Bu mezonlarda talabalarning ishi ball bo'yicha qanday baholanishi ko'rsatiladi.

Yozma ishni baholashda ikki xil yondashish mavjud. Birinchisi, reyting usulidan foydalanish. Bu usulda ishning umumiy sifati qiziqtirib, ayrim tomonlariga e'tibor berish zaruriyati yo'q bo'lsa, qo'l keladi. Odatda, bu usul ko'proq tayanch iboralarga asosida yoziladigan yakuniy nazorat ishida

qo'llaniladi. Yozma ish sifatiga ko'ra ish 35 kategoriyaga bo'linadi. So'ngra ular ishning sifatiga ko'ra tabaqalashtirib baholanadi. O'qituvchi yozma ishni talabalarga qanday mezonga ko'ra baholanishini tushuntirishi kerak. Yozma ish o'quv yilining oxirida yakuniy baholash uchun o'tkazilib, ko'p variantli usulda qo'llaniladi. Har bir variantda asosiy savol va tayanch tushunchalar bo'lib, ularga alohida javob yoziladi.

Qo'yilgan savolga to'g'ri va to'la javob yozilsa, savolning mohiyati, mazmuni yoritilib, boshqa iqtisodiy hodisa, jarayonlar bilan bog'lab, hayotiy misollar bilan boyitilib, izchil, mavjud adabiyotlarda yoritilishiga baho berishga intilsa, mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, talabaga yakuniy nazorat uchun ajratilgan maksimal ballning 86 – 100 foizi darajasida baholanadi. Berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, qo'yilgan savollarning mazmuni, sabablari ochib berilsa, boshqa iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligi, bog'lanishlari ko'rsatilsa, hayotiy misollar bilan asosan to'g'ri yoritilsa, lekin ta'rif berishda va hayot bilan bog'lashda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilsa, yakuniy nazorat uchun ajratilgan maksimal ballning 71 – 85 foizi darajasida baholanadi.

Qo'yilgan savolga asosan to'g'ri javob yozilsa, biroq masalaning mohiyati, mazmuni, boshqa hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligi to'la yoritilmasa, hayotiy misollar keltirilmasa yoki qisman keltirilsa, bunday ish maksimal ballning 56 – 70 foizi darajasida baholanadi. Berilgan savolga javob yozilmasa, noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, uning mazmuni, sabablari, boshqa iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligini bayon qilishda, hayotiy misollar keltirishda chalkashliklarga, xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ish yakuniy nazoratga ajratilgan maksimal ballning 0 – 55 foizi darajasida baholanadi.

Ikkinchi yondashishdagi baholash mezonida, ishning sifati avvaldan ishlab chiqilgan baholash standarti bo'yicha amalga oshiriladi. Bu usul rubrikatsiyalash deyiladi. Bunda mezonlar alohida rubrikatlarga bo'linib, har biri qancha ball bilan baholanishi ko'rsatiladi. Ishni baholashda rubrikatsiya jadvalidan foydalaniladi. Bunday yondashish ko'proq esselarni baholashda

qo'llaniladi. Talabalarni avvaldan ularning ishi qanday baholanishi bilan tanishtirib chiqish mumkin. Bu ularga ishni yozishda mo'ljal bo'ladi. Yuqori ball olish uchun nima qilish kerak, ishni qanday yozish zarurligini avvaldan chamalash imkonini beradi.

3.3-jadval

Rubrikatsiya jadvali

Mezonlar	Ball
Asosiy g'oyalar mazmuni aniq bayon qilingan. Muallif mantiqiy izchillikda o'z fikrini ustalik bilan bayon qilgan. Hayotdan misollar keltirilgan. Ish tushunarli til bilan yozilgan. Statistik ma'lumotlardan foydalanilgan. Lug'aviy zaxiraga boy. Ish grammatik qoidalarga amal qilingan holda yozilgan. Muallifning bilimli ekani ko'rinib turibdi.	5
Asosiy g'oya, mazmun asosan ochib berilgan. Fikr etarli darajada izchillikda bayon qilingan. Fikr yuritish to'g'ri. So'zlar, iboralar to'g'ri tanlangan va ifodalangan. Matnda minimal darajada xatoliklar bor.	4
Asosiy g'oya, savolning mazmuni noaniq bayon qilingan. To'plangan material, axborotni bayon qilishda izchillik yo'q. So'zlar, iboralar noto'g'ri tanlangan. Gaplar noto'g'ri tuzilgan, xatolar ko'p.	3
Asosiy g'oya, mazmun, savolga javob yo'q. Fikr uzilibuzilib, bog'lanmagan tarzda bayon qilingan. Ishning tili muallifni savodsizligini ko'rsatib turibdi.	1,2
Ish o'zining mavzusi emas yoki o'qib bo'lmaydi.	0

Talabalar bilimini baholashda an'anaviy og'zaki savol javob, suhbat ham o'ziga xos o'rin tutadi. Bunda talaba bilan jonli muloqot olib boriladi. Talaba o'z fikrini o'rtoqlashish, boshqalarning nuqtai nazarini tahlil qilish uchun katta imkoniyatga ega. Lekin bu usulda sub'ektiv omil asosiy o'rinda turadi.

Talabalar bilimini sinash va baholashni ijodiy topshiriq berish, tanlov o'tkazish va uni baholash tarzida ham qo'llash mumkin. Bu talabalarga keng imkoniyatlar beradi. Ular o'z qobiliyatlarining turli qirralarini ochadilar. Chunki bunday nomerlarni tayyorlash talabalardan topqirlik, fantaziya, yumorni ilg'ash xislatlari va boshqalarni talab qiladi. Ularni hamma mavzular uchun qo'llab bo'lmaydi. Ularni tayyorlash uchun nihoyatda ko'p vaqt talab qilinadi.

Natijada ko'zlangan maqsadga erishmaslik mumkin. Baholash qiyin. Talabalar o'rtasida sifat jihatdan farqni ilg'ash qiyin.

Masala-mashq bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqishda talabalar bilimini baholash¹⁰

3.4-jadval

MEZONI

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
1	2	3
86-100	A'lo	Berilgan masala bo'yicha tushunchaga ega bo'lish, uni to'liq yechish va mazmunini anglash va o'zgalarga tushuntirish qobiliyatiga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Masalani yecha bilish, tushunchaga ega bo'lish lekin boshqalarga tushuntirib bera olmaslik
55-70	Qoniqarli	Masala bo'yicha tushunchaga ega bo'lmaslik, o'zgalarga yordamida masalani ishlash
0-54	Qoniqarsiz	Masala bo'yicha umuman tushunchaga ega bo'lmaslik, yecha olmaslik, o'zgalarga yordamida ham yecha olmaslik.

Bunda o'quvchi-talaba masala yechish orqali uning mavzuni qanchalik o'zlashtirganini baholash mumkin bo'ladi.

T-sxema bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqishda talabalar bilimini baholash

3.5-jadval

MEZONI

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
1	2	3
86-100	A'lo	Tovar moddiy zaxiralar haqida berilgan tariflarni hammasini tushuna bilish o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash va o'z fikrini bayon eta olish
71-85	Yaxshi	Tovar moddiy zaxiralar haqida berilgan tariflarni hammasini tushuna bilish o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash va o'z fikrini bayon eta olmaslik
55-70	Qoniqarli	Tovar moddiy zaxiralar haqida berilgan tariflarni yuzaki tushinish o'xshash va farqli tomonlarini ajrata olmaslik o'z tushunchasiga ega bo'lmaslik
0-54	Qoniqarsiz	Tovar moddiy zaxiralar haqida berilgan tariflarni umuman tushunchaga ega bo'lmaslik va o'z fikrini bayon eta olmaslik.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

Hujjatlashtirish bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqishda talabalar bilimini baholash

M E Z O N I

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
1	2	3
86-100	A'lo	Hujjatlar bo'yicha tushunchaga ega bo'lish uni to'ldirish qoidalarini bajara olish va mazmunini anglay bilash va amaliyotda qo'llay olish
71-85	Yaxshi	Hujjatlar bo'yicha tushunchaga ega bo'lish uni to'ldirish qoidalarini bajara olish va mazmunini anglay bilash va amaliyotda qo'llay olmaslik
55-70	Qoniqarli	Hujjatlar bo'yicha tushunchaga ega bo'lmaslik uni to'ldirish boshqalardan yordam olish mazmunini anglay olmaslik amaliyotda qo'llay olmaslik
0-54	Qoniqarsiz	Hujjatlar bo'yicha umuman tushunchaga ega bo'lmaslik

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 30sentyabridagi buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat Nizom»da belgilanganidek, talabalar bilimini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi.

Ana shu mezonlar asosida har bir fandan reyting tizimi bo'yicha talabalar bilimini baholash mezoni ishlab chiqiladi.

XULOSA

“Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o‘tish metodlari va ularni qo‘llashni takomillashtirish mavzusida bitiruv malakaviy ishini yozish davomida kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shuvchi buxgalteriya hisobi mutaxassislarini tayyorlashda ilg‘or zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo‘llash nechog‘lik muxim ekanligini tushinib etdim. Talabalarga “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o‘tishda eng samarali metod bu Masala mashq va savol-javob hisoblanar ekan.

“Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusi buxgalteriya hisobi fanining muhim mavzularidan biri sanaladi. Korxonada ishlab chiqarishning eng asosiy qismi Tovar-moddiy zaxiralar hisoblanadi. Bu esa hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida TMZ to‘g‘risida tezkor va ishonchli axborotlar bilan ta‘minlashda korxonaga uchun eng muhim jabhasi bo‘lib hisoblanadi. TMZ lar buxgalteriya hisobida ishlab chiqarishda uzluksiz va doimiy qatnashadigan vosita hisoblanadi.

Talabalarga “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusini o‘qitishda bir qancha metodlar va texnologiyalardan foydalanish mumkin ammo, shunday bir usulni tanlash kerak ekanki, o‘sha usul talabalarda TMZ lar to‘g‘risida ko‘proq tasavvur hosil qilishga xizmat qilsin. Fikrimizcha, “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o‘tishda talabalarga amaliy ko‘nikma berish, mavzuga qiziqishini oshirish, mustaqil ishlashlariga majbur qilish, o‘zaro fikr almashish bir vaqtning o‘zida professor-o‘qituvchining talabalarni nazorat qilishi, talabalarga mavzuni tushinarliroq etkazish imkonini berishda masala mashq va tarqatma materiallar metodikasi eng samarali hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha fikrimizni umulashtirar ekanmiz “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o‘tishda masala mashq va tarqatma materiallar metodikasini qo‘llash samaradorligini oshirish rejasida ta‘kidlab o‘tilgan fikrlarni yana bir bor eslab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun talabalarga “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o'tishda “Masala mashq ishlab chiqish, shular asosida tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan foydalanish” metodikasini qo'llash maqsadga muvofiq.

Bazi bir kamchiliklariga qaramay, “Tovar moddiy zahiralar hisobi” mavzusida dars o'tishda “Masala mashq ishlab chiqish, shular asosida tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan foydalanish” metodikasini qo'llashning afzalliklari ko'p ekan. Tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan foydalanishda barcha metodlar asosida dars o'tish, ulardan keng foydalanish mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va huquqiy - me'yoriy hujjatlari.

1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1.1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T. Sharq,2010-yil.

1.1.2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Toshkent sh.,1997-yil 29-avgust 464-I-son.

1.1.3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi 29.08.1997-yil qonuni bilan tasdiqlangan.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.

1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida”. 11.12.2012-yil, 240(5660)-son.

1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy – texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora – tadbirlari to’g’risida”. 2011-yil 20-maydagi PQ-1533-son.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va huquqiy – me'yoriy hujjatlari.

1.3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizom. (keyingi o'zgartirishlar bilan).

1.3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “O’rta maxsus, kasb – hunar ta’limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida”.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va ma'ruzalari.

1.4.1. Bosh maqsadimiz – Keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2013 yil. // Xalq so'zi gazetasi 19 yanvar 2013 yil.

1.4.2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

1.4.2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish- ustuvor maqsadimizdir” nomli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010-yil 28-yanvar.

1.4.2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011-yil.

1.4.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekistonda ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. “Xalq so'zi”, 2012-yil 15-sentabr.

1.4.4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. “Xalq so'zi”, 2012-yil 18-fevral.

II. Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar.

2.1. Asosiy adabiyotlar.

2.1.1. Moliyaviy Hisob” I.Ochilov J.Qurbonboyev.

2.1.2. G`ulomova F.G`. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. -T.: Norma, 2010

2.1.3. Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik.-T.: “SHarq” nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi, 2004

2.1.4. A.X.Pardayev va B.X.Pardayev “Boshqaruv hisobi”. O`z.Res. Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilish akademiyasi.-T.: “G`afur G`ulom” nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. 2008y

2.1.5. A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo`ziyev va N.Rizayev. “Moliyaviy va boshqaruv hisobi”. O`quv qo`llanma. -T. IQTISOD-MOLIYA : 2008 y

2.1.6. D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi.O`quv qo`llanma-T: «Fan va tehnalogiya» 2007 y.

2.1.7. Iqtisodiy pedagogika” D.Tojiboyeva., N.Xo`jayev., G.Avalova. Toshkent-
2008,

2.1.8. D.Tojiboyeva., A.Yuldashev. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi, darslik. T.: “Aloqachi”- 2009.

2.2. Qo`shimcha adabiyotlar.

2.2.1. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O`quv – uslubiy qo`llanma. / “Zamonaviy ta`lim texnologiyalari” turkumi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2009..

2.2.2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar – T.:Iste`dod, 2008

2.2.3. Sh.Fayziyev, I.Meliyev. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. “Iqtisod-Moliya” 2010-yil,

2.2.4. T.Jo`rayev., D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi. I-II qism, “Fan va texnologiya nashriyoti” 2011-yil.

2.2.5. Hakimov B.J., B.B.Alimov, U.A.Xolmirzayev, A.X.Po'latov
Iqtisodiy tahlil nazariyasi –T.: “Iqtisod-Moliya” 2013-yil.

2.2.6. F. Yuldashev. Interfaol usullarni qo'llashda o'quvchilarning hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish. “Xalq ta'limi” 6-son / 2012y

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

3.1. Eshonqulov L/ Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi. Ro'znoma.
“Iqtisodchi” 2012-yil, 5-son.

3.2. Tolipova J., Numonova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. / “Xalq ta'limi” jurnali

3.3.Ma'rifat gazetasi. 2013-yil, 2-mart, №18

IV. Internet saytlari:

-www.mf.uz

-www.norma.uz

-www.edu.uz

-www.ziyonet.uz

-www.pedagog.uz